

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR  
UYUSHMASI

# SHODI OTAMUROD

UMR O'TIB BORADIR, GULIM...

*She'rlar*

TOSHKENT  
«ADABIYOT»  
2021

Loyiha rahbari  
**Sirojiddin SAYYID,**  
*O'zbekiston xalq shoiri*

Mas'ul muharrir  
**Muhiddin ABDUSAMAD**

Shodi Otamurod “Sog’inch ranglari”, “Muloyim mushuk” (bolalar uchun) nomli kitoblari bilan allaqachon ustozlar-u adabiyot muxlislari e’tiborini qozongan shoirdir. Uning navbatdagi she’riy to’plami ham qalbingizni bir olam hayrat-u hayajon bilan to’ldiradi deb umid qilamiz.

ISBN 978-9943-7107-2-6

© Sh. Otamurod, 2021  
© «Adabiyot», 2021

---

## INSON

Ey qadrdon, ey jigar  
Deb aytaylik barchaga,  
Ko'ngli dardchil bo'lsa gar,  
Dardiga darmon kerak.

G'alla pishsin dalada,  
Rizqimiz shu g'allada,  
Taraqqiyot pallada,  
O'zbekka xirmon kerak.

To'ysin asal, boliga,  
Qo'yingiz o'z holiga,  
Ta'qiblardan horigan  
Ayiqqa o'rmon kerak.

Qulun kerak biyaga,  
Sahro kerak tuyaga,  
Yurmasin deb qiyaga  
Karvonga sarbon kerak.

Qo'shiq aytsam toza zo'r,  
Sen ham menga bo'lg'in jo'r.  
To'zg'imagin, inoq bo'l,  
Dushmanga sarson kerak.

Quyoshiga, oyiga  
Kim she'r atab boyigan.

Nima dersiz, shoirga  
Zomin-u Do'rmon kerak.

Kezib dunyoning ichin,  
Yurtim ko'rsatdi kuchin,  
Madhini bitmoq uchun  
Tuganmas doston kerak.

Quyosh kerak olamga,  
Vatan kerak odamga,  
Biling, har bir qadamda  
Insonga inson kerak.

### **KO'NGIL UYI**

Ey do'stlarim, qurganman  
Ko'ngil degan imorat.  
Devori mehr degan  
G'ishtlaridan iborat.

Buzilmasin ko'nglingiz,  
Bitmas dunyo ishlari.  
Ko'z yosh to'kib eritmang  
Bu imorat g'ishtlarin.

## XALQIM

Xalqim,  
Bardam bo‘lgin, yoningda borman,  
Bejiz chorlamaysan, ko‘nglingda borman.  
Yillaringda borman, kuningda borman,  
Oylaringda borman,  
Siyratingdaman.

Ko‘ngling farzandlarda, qo‘llaring ishda,  
Elga xizmat deysan yozdami, qishda.  
Sen hormay ishlagan dala-yu dashtda,  
Soylaringda borman,  
G‘ayratingdaman.

Xalqim,  
Darding olay ko‘ksimni ochib,  
Yelkamni tutayin mehrimni sochib,  
Borsam, uylaringda darvozang ochiq,  
Choylaringda borman,  
Suhbatingdaman.

Tinmaysan mehmonga himmat ko‘rsatib,  
Ko‘ngilga yetganda she‘rning fursati,  
Poygakda o‘tirib, o‘qib to‘rt satr,  
Uylaringda borman,  
Izzatingdaman.

Xalqim,  
Qulluq qilsam, qullug'im arzir,  
Mingta she'r yozsam ham uzilmas qarzim,  
Sen aytgan tilakda, sen qilgan orzu-  
O'ylaringda borman,  
Zahmatingdaman.

Teraklaring askar qatorasiga,  
O'g'lonlaring o'xshar tog' qoyasiga,  
Otameros yurtning himoyasiga  
Shaylaringda borman,  
Quvvatingdaman.

Xalqim,  
Erk ko'nglingga baxsh etdi olov,  
Dilda darding bo'lsa, bilmasin birov.  
Ikki og'iz tilak, bir osham palov –  
To'ylaringda borman,  
Xizmatingdaman.

Xalqim,  
Gullab-yashna, sen ulkan daraxt,  
Uzilib tushmasin sendagi bir band.  
O'zbekiston degich jannatga monand  
Joylaringda borman,  
Davlatingdaman.

## **BILAMAN, SIZ...**

Bog‘laring bor, daraxtlarni quchgim kelsa,  
Tog‘laring bor, qanot qoqib uchgim kelsa,  
Buloqlardan bir zilol suv ichgim kelsa,  
Qo‘llaringga kosa tutib turgaydirliz,  
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirliz.

Bug‘doyzordan xirmonini uydirlanglar,  
Yurtin suyib o‘zini ham suydirlanglar,  
Mehridan bir yuksak Vatan qurdirlanglar,  
“Bu imorat – bizning bino” degaydirliz,  
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirliz.

Qishlog‘imdan ketib, yursam shaharlarda,  
Sigir haydab ko‘rinmasam saharlarda,  
Saratonda cho‘milmasam anhorlarda,  
Qayerlarda yuribsang, deb tergaydirliz,  
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirliz.

O‘zbekiston – tabiatda buyuk asar,  
Bir-biridan ta‘m o‘g‘irlar qovun, asal,  
Ariqlarda suvning shashti pasaysa sal...  
Nihollarga ko‘z yoshingiz bergaydirliz,  
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirliz.

Oq qog'ozga to'kay desam bor hislarim,  
Tugamadi baytlarim-u bahslarim,  
Ey, do'stlarim, sizga ortgan havaslarim,  
Sen ham bizday sevasanmi, degaydirsiz,  
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirsiz.

### **ABDULLA ORIF**

Do'stlar, olam uzra boqib turibdi  
Mangu zamonidan Abdulla Orif.

Hamon so'zlamoda inson zotining  
Din-u iymonidan Abdulla Orif.

Yaxshini boshiga ko'tardi, ammo  
Bezdi yomonidan Abdulla Orif.

Nayzaga aylangan satrlarin goh,  
Uzdi kamonidan Abdulla Orif.

Ey dunyo, nahot bo'y ko'rsatar endi  
Yillar armonida Abdulla Orif.

Olisda mayog'in yoqqan kemadir  
So'zning ummonida Abdulla Orif.

Taratmoqda so'zning xushbo'y iforin  
Jannat tomonidan Abdulla Orif.



## ONA TILIMGA

Otamning merosi, tilim, o‘zingsan,  
Onamning siymosi, tilim, o‘zingsan.

Millatning ma‘nosin topganman sendan,  
Hurriyat havosin totganman sendan.

O‘rxun-Yeniseyda ko‘z ochgan tilim,  
Ilk bor Qoshg‘ariyda yuz ochgan tilim.

Qadim bitiklarga yetgan ildizing,  
Ko‘kda yaraqlagan bugun yulduzing.

Quvvatga to‘lmog‘ing Navoiydandir,  
Dilga tug‘ bo‘lmog‘ing Navoiydandir.

Hazratning nazmidan to‘kilgan durlar,  
Mangu xazinangga baxsh etgan nurlar.

Quyoshdek balqiding fikr, onglarda,  
G‘olib o‘tmoqdasan asriy janglardan.

Boburning jomida so‘z jarangi bor,  
Munis ohang birla ajib rangi bor.

Mashrabim so‘z bilan haqning zorimi,  
Shoirni chorlagan so‘zning dorimi.

Nodira to'xtamas nega yig'idan,  
Qoni to'kilganmi she'rning tig'idan.

Sen ulkan kemasan so'z ummonida,  
Gavhar tersam qani dil xirmoniga.

Yuragimning ko'rkam libosi, o'zing,  
Ma'nosi, navosi, a'losi o'zing.

Bolam davom aylar ota so'zimni  
Sensiz bosolmagay mening izimni.

Tilim, sen xalqimning shamchirog'i bo'l,  
Uyg'onsin, beshikning qo'ng'irog'i bo'l.

### **DARVOZA**

Uying buncha shinamdir,  
Hovlingga gul soch, sevgi.  
Ostonangda turibman,  
Darvozungni och, sevgi.

Mening bunday so'zimni  
Qalbga qattiq olmagin.  
Men ham kiray uyingga,  
Ko'ngilga qulf solmagin...

## ONAJONIM XOTIRASIGA

Osmon yorug‘ edi, quyosh kulardi,  
Murodim nimadir, oy ham bilardi.

Olisga qadalgan endi nigohim,  
Olovdek rang berdi ufqqa ohim.

Onamni, onamni sog‘inadirman,  
Sog‘inib sog‘inchga ovunadirman.

Yonadirman o‘zim yolg‘iz, sukutda,  
Ketib borayotir onam tobutda.

Shumidi onamning so‘nggi ulovi,  
Shumidi onamning oxirgi ovi.

Yashardi dunyoda ko‘nglimni ovlab,  
Endi tashlab ketdi qalbim tushovlab.

Hijron ustuniga yuzimni bossam,  
Qalbidan toshadi alam-u g‘ussam.

Ko‘kda oy ko‘rinmas, endi onam yo‘q,  
Endi ko‘rolmayman, endi choram yo‘q.

Umrimning eng go‘zal go‘dak pallasi,  
So‘zlarning ulug‘i edi allasi.

Ohangda bor mehri mujassam edi,  
Qaniydi, hozir ham eshitsam edi.

Mehriga chayilib otardi tonglar,  
Sog'ardi quyoshning nurin ayvonlar.

Tinmasdi, tongdanoq hech kim turmasi,  
Satilga to'lardi sigir tuhfası.

Ajib qo'shiq edi qushlar chug'uri,  
Zavqimning yo'q edi cheki, oxiri.

Onam ketgach, kimga aylandim endi,  
Armon beshigiga belandim endi.

...Meni sog'inardi yiroqda paytim,  
Necha bor, necha bor onamga qaytdim.

Sog'inchning eng zo'ri endi mendadir,  
Bo'zlayman, o, onam qachon qaytadir?!

Kim edim, so'z degan yo'lga tushgandim,  
Yo'l yurib, bechora holga tushgandim.

Yo'ldosh bo'ldimikin menga qayg'ular,  
Qay alamni aytay – ichdim og'ular.

Men faryod qilmadim, ichimga yutdim,  
Ko'nglim tozarishin kutdim. Ko'p kutdim.

Angladim, bo‘ynimda qarz yotgan ekan,  
Xudoyga ko‘pdan-ko‘p arz yotgan ekan.

Meni yelkasiga olgan qirlarim,  
Onamdek mo‘tabar aziz yerlarim.

Endi onam bo‘ling, yurak oqlansin,  
Kindik qon to‘kilgan tuproq poklansin.

Vatan beshigimda aytsa allalar,  
Mungli ovozidan olam tebranar...

### **OVOZIM**

Ovozim bu – eng og‘ir bayroq,  
Go‘yo yerga to‘shalgan gilam.  
Mabodo men ko‘tarsam baland,  
Simtorlarday titraydi olam.

Ovozim bu eng og‘ir kuydir,  
Kuydirki hech yo‘qdir poyoni.  
Mabodo men qo‘shiq kuylasam,  
Qo‘shiq bosib qolar dunyoni.

## VATAN

Bir siqim tuproqdan Vatan yaralgay,  
Bir toza mehrdan yaralgay Vatan.  
Shuning-chun azaldan issiq diydorday  
Mehribon ona deb atalgay Vatan.

Shu yurtda ko'z ochgan qadim zotlar ham,  
(Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sinolar).  
Axir, sog'ingan-ku bir fursat, bir dam  
Vatandan yiroqda bo'lgan asnolar.

Yurtini sog'inib Sino o'shal dam,  
Bir umr qalbida to'lib g'am firoq.  
Topsaydi ayriliq davosini ham,  
Aziz bo'larmidi shu aziz tuproq.

Tuproqqa mehrini bermagan odam  
Qaydanam qadrli bo'la oladi.  
Undaylar qalbini qoplasa motam,  
Qaydanam shodlikka to'la oladi.

Insonning umri ham tugagani dam  
Bir kuni shu tuproq olar bag'riga.  
Bir umr tuprog'in sevmagan odam  
Xijolatdan qanday kirur qabriga?!

## O‘ZBEK BOLASI

Oradan lahzadek o‘tib asrlar,  
Alanga rangiga kirdi hajrlar.  
O‘shanda dilida tugib anjirlar,  
Hur ko‘ngli ichiga cho‘kdi bolaning.

Bobosin qilichi qonga botganda,  
Tulpori muqaddas bo‘ldi Vatanda,  
O‘shanda ko‘k tog‘lar sachrab yotganda,  
Momosi ko‘zyoshlar to‘kdi bolaning.

Xayollar begona xayollar edi,  
Sabog‘i eng soxta ziyolar edi,  
U dillar nedan ham uyalar edi,  
Otasi onasin so‘kdi bolaning.

O‘zbekning tuprog‘i aziz xok endi,  
Azaliy hur edi, ruhi pok endi,  
Bu ozod yerlarda ozod bog‘ endi,  
Hurlikni ko‘ngliga ekdi bolaning!

Do‘ppisin kiyganda boshi omonlar,  
Ruhlarda yorishdi toza imonlar,  
Imonga bosh egib keldi zamonlar,  
Boshi ham erklikka tegdi bolaning!

\* \* \*

Sochingiz o'rimi – hijron o'rami,  
Sochingiz uchida so'nggi chorami,  
Meni qora ko'rgan ko'zlar qorami,  
Meni bilar debman,  
Meni bilmabsiz.

Dunyoga bog'langan ko'nglim rishtasin  
Uzib tashladingiz, bilmam, nechtasin,  
O'tdi ko'p davronlar, o'tdi yil, asr,  
Meni bilar debman,  
Meni bilmabsiz.

Meni gullar bildi, bildi xazonlar,  
Ruhimga necha bor kirdi to'zonlar,  
Nahot kuzak bildi, bildi naysonlar,  
Meni bilar debman,  
Meni bilmabsiz.

Saratonga oshno yuragim kuygan,  
Qahratonga oshno qalbingiz suygan,  
Axir, o'zgalar-ku niqobni kiygan,  
Meni bilar debman,  
Meni bilmabsiz.

Soatlar o'tmog'i juda osondir,  
Har bitta daqiqa bitta marjondir.  
Vaqtiki keladi, gulim qachondir  
Meni bilar debman,  
Meni bilmabsiz.



Meni qora ko'rgan ko'zlar qorami,  
Mijgonlar o'qidan bag'rim yarami,  
Sochingiz uchida so'nggi chorami,  
Meni bilar debman,  
Meni bilmabsiz.

### SOG'INCH

Yoshlik, seni suratimda ko'rmoqdaman,  
Barisini endi sendan so'rmoqdaman,  
Kundan-kunga toshga o'xshab bormoqdaman,  
Senga boqib bag'rim bo'lak-bo'lak bo'ldi,  
Bu kun o'sha soddaliging kerak bo'ldi.

Toychoq qilib minganlarim hassa edi,  
Bu buvimning quvonchiga hissa edi,  
Dil tomida boychechag-u maysa edi,  
O, orzular endi oddiy ermak bo'ldi,  
Bu kun o'sha soddaliging kerak bo'ldi.

Endi chindan to'yib-to'yib yig'lagayman,  
Seni ko'ngil kulbasida saqlagayman,  
Umrinni ham endi senga bog'lagayman,  
O, bir lahzang xotiramda yuksak bo'ldi,  
Bu kun o'sha soddaliging kerak bo'ldi.

\* \* \*

U yaxshi qiz edi chinakam,  
Unutmasman erka chog'larni.  
"Sevaman"ni aytgan bo'lsam ham,  
Yana aytishimni xohlardi.

Kulgan bo'lsa kulgandir mendan,  
Balki unga shu bo'lgan huzur.  
Xafa qilib qo'ymadimmi deb  
So'ramagan hech qachon uzr.

Erkalanib ketardi biram,  
Qo'llaringa qo'lin bog'lardi.  
Men yoniga qaytgan bo'lsam ham  
Yana qaytishimni xohlardi.

Ovozi yo'q zanjirmi sevgi,  
Bog'langanim rostmidi unga.  
Kiyik kabi ziyrak va sezgir,  
Bor go'zallik xosmidi unga.

Muhabbatim bo'lgan emas kam,  
Baxsh etgandim bog'-u tog'larni.  
Men-ku unga yetgan bo'lsam ham,  
Yana yetishimni xohlardi.

Eslatarmi sevgi bayrog'in  
Xayr demoq-chun ko'tarilgan qo'l.

Xush yoqarmi qushlar sayrog‘i,  
Hijron tomon burilganda yo‘l.

Eslaganda ko‘zlarimda nam,  
Bilmam, nega o‘zin oqlardi.  
Men yonidan ketgan bo‘lsam ham  
Kelib-ketishimni xohlardi...

\* \* \*

Tuyg‘ular otiga mingan u shoir  
Xayol og‘ushida chopib boradi.  
Mazmunga to‘lishgan satrlarini  
Taqimiga bosib boradi.

Otining shamoli yo‘lda neki bor,  
Chang-u toshni borar supurib.  
Shunday chog‘da eshitar shoir  
Yuragining dupur-dupurin.

Satrlarin qalb otlig‘ ulkan  
Chegaradan o‘tkaza olsa,  
Sarlavhasin – nozik jilovin  
Qo‘lingizga tutqaza olsa,

Halol deya hayqiring, do‘stlar,  
G‘irromlikdan bu shoir yiroq.  
Biling, yaxshi yoza olmagan  
Shoirlardan uloq yaxshiroq...

\* \* \*

Zohirda uchragan alomatlarim  
Botinda qayg'umdir, ham omadlarim.  
Tabassum aylasa sarvqomatlarim,  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

Bolalik paytlarim erkin qush edim,  
Bolalik ham o'tdi, bu bir tush, dedim.  
Seni o'qisin deb yozgan bu she'rim,  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

Diqqatim tortadi maysada shabnam,  
Bedorlik qo'linga tutqazgan qalam.  
Havaslarim, bedorligim ham  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

Sutga chayilgandek ikki kabutar,  
Shivirlar, o'rtada qanday gap o'tar.  
Maktublarin yozib ko'kka o'qitar...  
Ishqqa ishora bu, sevgidan belgi.

Ishq qilich sermasa tong bilan shomda,  
Quyoshning holin ko'r qontalash jomda.  
Yulduzlar, ko'zyoshlar – cheksiz marjonlar,  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

\* \* \*

Olis oqshom  
Yuragimni  
Olib keldim  
Oldingga.  
Ol rangidan  
Ol yuzingga  
Surmoq uchun  
Olding-a.  
Olgin, mayli,  
Ol rangidan  
Olma debon  
Aytmasman.  
Olmasang gar  
Ol rangidan,  
Oldingdan men  
Qaytmasman.  
Olis oqshom  
Yuragimning  
Ol rangidan  
Olib tur.  
Ol rangidan  
Bayroq qilsang,  
Mening ko‘nglim  
G‘olibdur...

\* \* \*

*Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap...*

**S. Yesenin**

“Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap...”  
Tanimoqdir o'zni, o'zgani.  
Yashashim shart, telba ko'nglinga  
Bag'ishlangan daftar tuzgani.

Mayli, turfa ohanglar kelsin,  
Goh to'pori, goh mayin she'rdan.  
Bu dunyoda she'rdan yaxshisin  
Topolmasam kerak hech yerdan.

“Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap...”  
Sayramoqlik maqsadmas, gulim.  
Yig'lamoqlik shartmas nayimga,  
Yaqinroqqa o'xshar-ku yo'lim.

Ichmay shoir bo'lmoqlik qiyin  
Deguvchilar balki haqdirlar.  
May ichmasdan shoir bo'lgum men,  
Qiyinama bo'ldi taqdirlar...

“Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap...”  
Aylamoqdir oson mushkulni.  
Cho'lda o'sgan yantoq o'rniga  
Ekib qo'ymoq chiroyli gulni.

To‘g‘ri aytar har oshiq dohiy:  
Sevolmagan odam – odammas.  
Men-chi, ko‘nglim band etgan oddiy  
Muhabbatni yoza bilsam, bas...

“Shoir bo‘lmoq – bu-ku tayin gap...”  
Kuylayvergum endi erta-kech.  
O‘zga tilda ammo o‘z tilim  
Bo‘la turib kuylamasman hech.

Kuylamasman hozircha yonib,  
Chetga surib turay barchasin.  
Kuzatyapman shoir dunyoni,  
Hayot mayin sipqorgancha jim...

### **XUDBINNING UZRI**

Yurak alvon mayga turibdi to‘lib  
Va unga qo‘shilgan she‘r degan og‘u.  
Men uni sipqorgum. So‘ngra mast bo‘lib,  
O‘z baxtim haqida o‘ylagum og‘ir.

Bu yomon odatni tashlayman, mayli,  
Yo‘lini tutmasman bodaparastning.  
Bir qoshiq qonidan kechib qo‘yinglar,  
Mendayin beshafqat Shodiparastning!

## **BU DUNYO...**

*(Pandemiya davrida)*

O'xshar uchayotgan qushga bu dunyo  
Yo o'xshar lahzalik tushga bu dunyo.

Tashvishlar xaltasi qo'ltig'idadir,  
Ketmoqdadir qaysi ishga bu dunyo.

Qancha bekatlardan to'xtamay o'tdi,  
Qaygadir shoshgani-shoshgan bu dunyo.

Bilaman, azobin ichga yutadir,  
Qo'ymoqda tishini tishga bu dunyo.

Qancha siri bo'lsa, shuncha yashirin,  
Aytmaydi, ichidan pishgan bu dunyo.

Yoyilib yotar u barmoqlarimdek,  
Aylansa yaxshiydi mushtga bu dunyo.

Chanqagan savobning bog'iga yetmay,  
Gunoh qirg'og'idan toshgan bu dunyo.

Sinovda topshirar necha bahoga,  
Ikkigami yoki beshga bu dunyo.

Jilvasi bizlarni rom etgan sari,  
Ba'zida haddidan oshgan bu dunyo.



Kiprik orasida omonatdir u,  
O'xshaydi ko'zdagi yoshga bu dunyo.

Men-ku o'z holimni anglarman, ammo  
Bilmayman, ne ko'yga tushgan bu dunyo...

## **SHE'RIYAT**

*So'z atomdan kuchli*

**A. Qahhor**

She'riyat! Men senga suyandim bu kun,  
So'zlarning taftidan qalbga cho'g' solib,  
O'zingni atomsiz qo'riqlaguvchi  
Sen, axir, davlatsan mag'rur va g'olib.

She'riyat! Sen o'zing go'zal diyonat,  
Mayli, senda yashay kam-u ko'st bilan.  
She'riyat! Men senga qilsam xiyonat,  
Yuragim portlatib yubor so'z bilan.

Men ham mag'rurdirman, mayli, shoirmas,  
Balki she'r yaratgum bir toza hisdan.  
She'riyat! Xayriyat, sendayin shonli  
Davlatning men baxtli fuqarosiman.

\* \* \*

Bormoqdaman,  
botmoqda quyosh,  
Sen ham ufqqa qo'yadirsan bosh,  
O'lsin deb shu iztirob, ko'z yosh –  
Kiprigimga mahkam osganman.

Bormoqdaman,  
borligim yo'qdir,  
Qadamlarim yo'lga ham yukdir,  
Tovonlarim osti kuyukdir –  
Sevgi degan cho'g'ni bosganman.

Bormoqdaman,  
borim tavakkal,  
Bu dunyoda sen menga yakka,  
Tillaringdan yuqtirib shakkar –  
Yozsam faqat "oh" deb yozganman.

Bormoqdaman,  
titrog'im baland,  
Bandimdagi yaprog'im bilan,  
Kaftimdagi tuprog'im bilan –  
Sochilganman, yo'lda to'zganman,  
Sochilganman, yo'lda to'zganman...

## BAHORGA QASIDA

### 1

Qaldirg‘och uyidek shinamdir qalbm,  
Qaldirg‘ochga o‘xshab keldingmi, bahor!  
“Sevaman” so‘zini labingda tutib,  
Polapon yurakka tashiysan izhor.

Sen har doim shunday go‘zalsan,  
Ey, vaqtning galdagi erka kelini.  
O‘zingni avayla, qanday to‘sarsan  
Yuraklardan toshgan sevgi selini.

Qalbimni sevaman, qalb ham Vatandek,  
Ko‘ngildan muhabbat ketmas tarqalib.  
Vatanni sevaman seni sevgandek,  
Yurtga muhabbatim sening orqali!

### 2

Gul bo‘lsin, rayhon bo‘lsin,  
Soy bo‘lsin, sayxon bo‘lsin.  
Bizni tez-tez so‘rab turgan  
Bahorim omon bo‘lsin,  
Muhabbat tomon bo‘lsin.

Baribir ishq yaxshi-da,  
Dunyolarning qoshida,  
Naqshlarning naqshida,

Bahorim omon bo'lsin,  
Hijronlar yomon bo'lsin.

Ishq dardiga muhtalo  
Bo'lgan yurak ko'p yaro,  
Ketsin endi ko'p balo,  
Bahorim omon bo'lsin,  
Dardlarga darmon bo'lsin.

Toychoqlarni kishnatgan,  
Dehqonlarni ishlatgan,  
Maysalarni yashnatgan  
Bahorim omon bo'lsin,  
...Bug'doy-u somon bo'lsin.

Qo'yni to'lib baytlarga,  
Qahratonni qaytargan,  
Do'stlarni ko'paytirgan  
Bahorim omon bo'lsin,  
Dushmanlar tamom bo'lsin.

Kelar gulni silagim,  
Ba'zan esa yig'lagim.  
Qalxim to'la tilagim:  
Bahorim omon bo'lsin,  
Bu katta farmon bo'lsin.

Charaqlab turibdi kun,  
Oyni quchoqlagan tun.  
Shu damlar umri uchun  
Bahorim omon bo‘lsin,  
Shu zamon zamon bo‘lsin!..

### 3

Mening hayotimdan ko‘z yummasang, bahor,  
Men uchun manguga yashasang, ko‘klam.  
Ko‘kka qarab yotsam har tong, har sahar,  
Seni deb ko‘nglimni yozsa bu qalam.

Boshimda yig‘lasa qizg‘aldoq bargi,  
Qoshimga to‘kilsa xushbo‘y atirlar.  
Bir umrga aylab qog‘ozlar tarkin,  
Peshonaga ko‘chsa quyma satrlar.

Mening hayotimdan og‘iz ochsa gul,  
Qulog‘ini tutib tursa boychechak.  
Boylansa ko‘nglingga mendagi ko‘ngil,  
Boyisak biz ikkov – xuddi bir ertak.

Majnuniy qonim-la ishqing cho‘lida,  
Visol yo hijron-la aylasam suhbat.  
Behush yotganimda hijron yo‘lida,  
Yuragimni bosib o‘tsa muhabbat...

4

O, ko'klam, keldingmi mehrini butun  
Onamday ko'ksiga joylagan ko'klam.  
Yog'dular ko'targan qishning tobutin  
Baxmal mato bilan siylagan ko'klam!

Ko'rdim, elchilaring sening tomondan  
Ostonamga tashlab ketmish maktublar.  
Mendanmi hol so'rab, niliy osmonda  
Uchayotir qushlar – qanoti juftlar.

Ko'klam, qishlog'imni sog'ingan ko'klam,  
Qishlog'im ko'ngliga boqayapsanmi?!  
Ko'zga yaqin tog'-u daralarida  
Quvonch – ko'z yosh bo'lib oqayapsanmi?!

Seni yozayapman sevib-sevinib,  
O'qisam onamga yoqquvchi bu she'r.  
Oq sochin yashirgan ro'mollariga  
Yashash belgilarin taqquvchi bu she'r.

Keldingmi, hali ham borligim bilib,  
O'zini, o'zini sezdirgan ko'klam.  
Yillar qatorida shoshib-surinib,  
O'zini navbatga yozdirgan ko'klam.

Keldingmi beray deb ko'ngil sabog'in,  
Meni maktabiga ming yetaklab ham –  
Mahmadona bola, uquvsiz shogird  
Ekanim bildirmay yashagan ko'klam...

## ARAZ

Ufqda ko'k shishaga  
Qip-qizil sharob to'lmish.  
May ichvolgan quyoshning  
Ahvoli xarob bo'lmish.

Shu yagona yorining  
Diydoriga tashna oy.  
Quyoshini zor kutib  
O'tirgandir, hoynahoy.

Ammo quyosh mast holda  
Kirib kelgach kulbaga.  
Oy qattiq xafa bo'ldi  
Boqib yori – telbaga.

Quyosh endi oyini  
Qanday qilib quchadi?  
Oyday yori bo'la turib,  
Axir, nega ichadi?

Oy-chi, hech bir so'z demay,  
Kulbada quyosh qolib,  
Arazlab chiqib ketdi,  
Ko'zlariga yosh olib...

\* \* \*

*Menga ro‘molchasin bergan o‘sha qiz –  
Rangi somon bo‘pti allaqachonlar.*

**Iqbol Mirzo**

O, ufqimga pichoqlar sanchib,  
Sachratishdi har yoqqa qonlar.  
Men yurakman,  
Yakka-yu yolg‘iz  
So‘zim kuygan allaqachonlar.

Sen mag‘rursan,  
Sen xokisorsan,  
Arosatda qolmish bu jonlar.  
Men danakman,  
Senga ko‘milib  
Mag‘zim kuygan allaqachonlar.

Tik turgancha ko‘ngling burchida,  
Olovlandim –  
Yorishdi tonglar.  
O, men shamman,  
Tilim qisilib  
Og‘zim kuygan allaqachonlar.



## **BOLALIKKA “TUHMAT”**

Meni tashlab ketding,  
Gunohga botdim,  
Yetaklab yuruvding qo‘limdan ushlab.  
Men bir bola edim,  
Endi boshingga –  
Bitgan balodirman bugundan boshlab.

Meni tashlab ketding,  
Endi hech kimsa  
Ishonmas mendayin holi zabunga.  
Ulg‘ayganim sari nahot har lahza  
Yashashim kerakdir chidab aybingga.

Meni tashlab ketding,  
Gunohga botdim.  
Vijdon qiynoqdadir,  
Qalbim nolalik.  
Endi topolmasman poshsholigimni,  
Bariga aybdorsan o‘zing,  
Bolalik!..

\* \* \*

Sen-u mendek yolg'iz insonni  
Hijron yutib boradir, gulim.  
Muhr qilib qalbga hijronni,  
Umr o'tib boradir, gulim...

Muhabbatning o'tli cho'g'idan,  
Malham olmoq balki kifoya.  
O'ldirguchi fursat o'qidan  
Bizni qilmas hech kim himoya.

Sen u yondir, men esa bu yon,  
O'rtada bir daryodir, gulim.  
Nega jimsiz,  
Ne uchun giryon,  
Umr o'tib boradir, gulim.

Fursat – tilsim, fursatni qo'ldan  
Bermog'imiz azobdir, azob.  
Adashmaylik, gulim, bu yo'ldan,  
Vaqt oldida saqlaylik odob.

Ko'z yosh bo'lib go'yo kipriktan  
Tomgan suvga yetarmi qo'lim?!  
Ikkalamiz solgan ko'priktan  
Umr o'tib boradir, gulim...

## CHAQALOQQA

Dunyoga keldingiz, qutlayman,  
Tug‘ildingiz har yon jar solib.  
Ko‘zlaringiz muncha beg‘ubor,  
Yig‘lashingiz muncha ma’noli.

Dunyoga keldingiz, qutlayman,  
Jajji qo‘l-u oyoqchalarni.  
Hayronman, halitdan negadir  
Ochgingiz kelmaydi barmoqchalarni.

Dunyoga keldingiz, qutlayman,  
Xursand bo‘ling. Siz kabi endi.  
Allaqayda do‘stlaringiz yo  
Dushmanchalar tug‘ilishgandir.

Dunyoga keldingiz, qutlayman,  
Sho‘x bo‘ling, to‘q bo‘ling, ko‘zda bo‘lsin cho‘g‘.  
Endi hammasiga chidab yashaysiz,  
Endi kurashasiz,  
Boshqa iloj yo‘q.

## DUNYO

Dunyo ketib borar,  
Dunyo aylanar  
Meni taqdirlarga qo'ygancha eltib.  
Ko'ksim yirtig'ini yashirgan sayin  
Taqdirlar ko'ksimni bormoqda yirtib.

Yashadim g'am bosgan ko'ksimni kerib,  
Teskari ishi deb charxifalakning.  
Ko'zdagi yoshimni tunlarga berib,  
Tongga qarab otdim har kun yurakni.

Netayin,  
Azaldan yashash shul edi,  
Notanish yozuvga to'lishdi manglay.  
Shu soxta nigohlar jonimga tegdi,  
Dunyoni to'xtating,  
Men tushib qolay!

## YO‘L...

*Shoir ukam Sayfiddin Okanovga*

Ishq deguvchi ka‘bam bor,  
Qaytdim degan tavbam bor,  
Qalb nuridan tortsam dor,  
Ka‘bamdan ka‘bangacha.

Inson qayon ketgaydir,  
Madad izlab goh daydir.  
Muhabbat ko‘p – yetgaydir  
Odamdan odamgacha.

Tug‘ilmoqlik azobi  
O‘lmoqlikning kitobi,  
Topilgaymi javobi  
U damdan bu damgacha.

Uchratganing do‘stmi, yot,  
Yo‘l poylarmi ul sayyod,  
Hisoblimi bu hayot,  
Qadamdan qadamgacha.

Ortda qolgan izlarim,  
Goh butundir, goh yarim.  
Yo‘lin topgay so‘zlarim,  
Qalamdan qalamgacha.

Yo'lovchingman, ey dunyo,  
Umidlarga men ham yor.  
Ko'ngil degan chiptam bor  
Ko'klamdan ko'klamgacha...

### UNING...

Qishlarini menga berganmi,  
Yog'ayotgan qorlari kammi,  
Sog'inchlardan oppoq gilamni  
To'shayotir –  
Yozida yo'qman.

Yiroqlarda hilpirar ro'mol,  
Xayolidan o'chdim ehtimol,  
Hijronlardan yuqtirmay malol,  
Yashayotir –  
Yodida yo'qman.

Nigohini mendan berkitib,  
Ko'ksimdagi muzni eritib,  
Yuragimning eshigin chertib,  
Kelayotir –  
Yonida yo'qman...

## AYRILIQ BOG‘I

Xayr, bohorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Arosatda qolgan men bitta fasl.  
Beshta barmog‘inning birini kesdim,  
To‘rt ustun dunyoga men tushgach asir.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Bugun ko‘zlarimdan tinmay oqar yosh.  
Singan qadahdayin yuragim yarim,  
Faqat qadahdami iroda,  
Bardosh.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Bildim,  
Safingizdan menga o‘rin yo‘q.  
Fidoyi askarday turmoqchi edim,  
Ammo men otibman  
O‘z-o‘zimga o‘q.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Mening bog‘imdagi gullar g‘alati –  
Yaprog‘i qip-qizil,  
G‘unchasi yashil,

(Nega bunday ekan,  
Xudo biladi).

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Och-nahor ketyapman dunyoga to'yamay.  
Nega bunday ekan,  
Yuragim – qadah,  
Olib kelishsinmi –  
Quysinlarmi may.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Afsus,  
Men tushibman o'zimga asir.  
Qanchalik o'zimga bermayin ishlov,  
Lekin bo'lolmadim eng yaxshi fasl.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Ayting,  
Men qaydaman,  
Bog'dami, tog'da,  
Qo'lim ko'tarishga haddim,  
Ko'nghim yo'q,  
Qarang!  
Kipriklarim xayrlashmoqda.



Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Ko‘zlarim kitobin – kiprigin yopdim.  
Nega men,  
Nega men shu bir sevgini  
Hayotdan topmadim,  
Kitobdan topdim.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Ketyapman –  
Darak yo‘q tong-u shomimdan.  
O‘lsam,  
Ul ziyoning poyiga cho‘kib,  
Kechirim so‘rangiz mening nomimdan.

Xayr, bahorlarim,  
Xayr, kuzlarim,  
Arosatda qolgan men bitta fasl.  
Beshta barmog‘imning birini kesdim,  
Endi hijronlar bor,  
Endi yo‘q vasl...

## **QABUL AYLANG**

Yoshlikda bu bog'da ancha yurganman,  
Yana bog'dan qaytdim – gullar terganman,  
Bejizgamas bu gul – ko'ngil berganman,  
Gulni gulligicha qabul aylang siz.

Yoshligim qolmadi, hali ham o'sha  
Xayolchan oshiqman – ishq menga go'sha,  
Yo'lingizga dilim qo'yibman to'shab,  
Dilni dilligicha qabul aylang siz.

Ko'rishsam, qo'llarim kaftingizdadir,  
Xayr desam, soyasi ortingizdadir,  
Quyoshning mehri ham taftingizdandir,  
Qo'lni qo'lligicha qabul aylang siz.

Muhabbat yo'li bu – uzun va bitmas,  
Mehringiz bo'lmasa, yo'lni yoritmas,  
Qancha yursam, bu yo'l meni horitmas,  
Yo'lni yo'lligicha qabul aylang siz.

## RANGLAR

Qizil qonda yozilajak endi bu sevgi,  
Bu hayot-ku arzimadi hech qanday rangga.  
Nima topdim, nima qo‘ydim, bilmam, haligi  
Qozonimga tashlangan oy –  
Sap-sariq tanga.

Muncha nozik tishlamasa o‘rgatilgan dard,  
Bilmam, aytgil, achishyapti qaysi barmog‘im?  
Hali bir kun oyog‘ingga tikon bo‘lar deb,  
Kosasidan yulduzini sochdimi mohim?..

Yig‘layverding... Tomchi ko‘z yosh –  
Bir tomchi sharob,  
Yuragingga sinib tushdim...  
Jaranglamadim.  
O‘zim qadah, o‘zim mayman, qadahday shaffof  
Peshonamga yozilgani ne? Anglamadim.

Qalam ichra to‘ldirilgan hasrat, alamim  
To‘kilsaydi...  
Boshlansaydi yurakka oq yo‘l.  
Bo‘lmas edi bag‘rimiz xun,  
Baxtimiz g‘anim...  
Taqdir – bizning ko‘nglimizga musht ko‘targan qo‘l!

\* \* \*

Suvim, og'irroq bo'l, oshma haddingdan,  
Shamolim, shashtingdan tushib tur sen ham.  
Begunoh xalqinga sinov qasdida  
Nega yuborasan kutilmagan g'am?

Do'stim, bu suvlar o'zimizniki,  
Shamol ham bizlarga begona emas.  
Tilim, aylanadi senda bu zikr.  
Dilim, shukronaga cho'mgil bir nafas.

Sirdaryo, sirlaring hammaga ma'lum,  
Dardingga darddoshman, siringga sirdosh.  
Endi senikidan qolishmas holim,  
Men ham alamingga berarman bardosh.

Hali ko'p niyating bo'lar ijobat,  
Duolari yetdi senga xalqimning.  
Suvim toshib ketdi dema, Sardoba,  
Mehri toshib o'tdi senga xalqimning.

Suvim, og'irroq bo'l, oshma haddingdan,  
Shamolim, shashtingdan tushib tur sen ham.  
Begunoh xalqinga sinov qasdida  
Nega yuborasan kutilmagan g'am?

## **QIZIM MADINAGA**

Jisimingdagi aziz jondirman,  
Yuragingda hayajondirman,  
Erkalayman, enajon deyman,  
Sen onamning o‘zisan, qizim.

Onang, akang, hamma sen taraf,  
Sen xursandsan sochlaring tarab,  
Xudoy mening ko‘nglimga qarab  
Topib bergan so‘zisan, qizim.

She‘r nima u – oddiy kor ekan,  
Qay ko‘ngilga malham, yor ekan.  
Tarog‘ingcha qadri bormikan...  
Yuragimning izisan, qizim.

Ovozing bulbulga andoza,  
Xayollaring ko‘nglimday toza,  
Kim qiziga shunday she‘r yozar,  
Sen shoirning qizisan, qizim.

\* \* \*

Shu ekanmi bir kam dunyo,  
Nayza bor-u, kamonim yo'q.  
Yomonlardan yomon yorim,  
Yonimda shu yomonim yo'q.

To'kildim men shamollarda,  
Uchirdilar, somonim yo'q.  
Tortishdilar tegirmonda,  
Tortilmagan tomonim yo'q.

Muhabbatda podshoman-u,  
Ammo biror farmonim yo'q.  
Oy yuzini bir ko'rsaydim,  
Armonim yo'q, armonim yo'q.

Alloh bilar kam-u ko'stim –  
Imonim bor, gumonim yo'q.  
Bu ishqimning savdosiga  
Dosh berguchi zamonim yo'q...

## MALOL KELMASIN

Netay, yurak yonib turadi,  
Olovlari malol kelmasin.  
Otashkada duk-duk uradi,  
Qalovlari malol kelmasin.

Goho yo‘llar birdir, ayrodir,  
Goho tog‘da, gohi sahrodir.  
Har ko‘ylarga solishga qodir –  
Sinovlari malol kelmasin.

Bolalikka ko‘ngil tashna, zor,  
Afsus demang ketganda bahor.  
Boshingizga tushgan oppoq qor –  
Qirovlari malol kelmasin.

Umringizni xarjlab yoz-kuzga,  
Vaqt o‘tganin olmaysiz esga,  
Dunyo o‘xshar do‘konchi qizga,  
To‘lovlari malol kelmasin.

## KO'ZING - DENGIZ

Bog'ingdan gul uzayotib men,  
Bog'lanibman senga loyiqday.  
Ko'zlaringda suzayotib men,  
To'nkarildim shaffof qayiqday.

Ko'nglim cho'kib ketaverdi jim,  
Moviy dengiz tortdi qa'riga.  
Qo'l siltadim – xayrlashmadim,  
Qo'l siltadim bari-bariga.

Mana, endi dilimda qayg'u,  
Kerak emas, yupatmagil, gul.  
Yov lagani bol emas – og'u,  
Ovlagani baliqmas ko'ngil.

Ushlab bo'lmas silliq dumidan,  
Seni aldar o'zga "loyiq"lar.  
Gar sham yonsa dengiz tubida,  
Parvonasi bo'lar baliqlar...



## IBTIDO

*Boshda oppoq edi bu dunyo...*

**Xurshid DAVRON**

### 1

Kuni kun bo‘lmagan, tunlari tunday,  
Dastavval bechora yolg‘iz yashagan.  
Mehmon kelarini oldin bilganday  
Eshikka poyonдоз, gullar to‘shagan.

Kamchilik bo‘lmagan yotish-turishda,  
Tarvuзи tushmagan qo‘ltiqlaridan.  
Eshik qoqib kelgach dastlab farishta,  
Shayton mo‘ralagan teshiklaridan.

Shundan-da boshlangan vahima-yu dod,  
Uning oyoqlari botqoqqa botgan.  
Qorilgan ul loydan tepadagi zot,  
Go‘zal shakl bergan ODAMIZOTGA.

Unga jon kirar chog‘ nay ham oldindan  
Ko‘rgani uchunmi yiroq-yiroqni,  
Tinmay yig‘layvergan, bizlar gohida  
Tinglab yig‘laganday “Cho‘li iroq”ni.

Aql kirib qolib har bir tirikka,  
O‘zin berib qo‘ygan dunyo to‘satdan.  
So‘ng esa ayblanib vafosizlikda,  
Boshi chiqmay qolgan tuhmatdan...

## 2

Panjamizga mahkam qisib dunyoni,  
Dunyoga kelibmiz dunyoni so‘rab.  
Bizning iltimosni yerda qoldirmay,  
Dastlab oq yo‘rgakka qo‘ymishlar o‘rab.

Ko‘z-quloq, oyoq-qo‘l, hammasidan bor,  
Mumkindir bemalol rizq termog‘imiz.  
Endi bizni hech kim qilolmaydi xor,  
Muhimi, omondir besh barmog‘imiz.

...Panjamizga mahkam qisib dunyoni,  
Yo‘lni yo‘qotibmiz, bo‘libmiz daydi.  
Endi yo‘l ko‘rsata olmagani-chun,  
Ko‘rsatkich barmoqni kesib bo‘lmaydi...

## 3

Ishqim mening dunyoga emas,  
Mana, sening ko‘nglingga tushdi.  
Mana, ochib yubordim-ku, bas,  
Dunyoni deb tugilgan mushtni.

Shoh bo‘lmadim,  
Men gado bo‘ldim,  
Men-da bu ishq dunyosin kezib.  
Egilishni istamas ko‘nglim,  
Men qanaqa gadoman o‘zi?!

Zulmatdayin qoshlaring uchar,  
Yo‘limni-da yoritmas xudo.  
Gar yonmasam suyagimgacha,  
Topolmasman bu ishqdan ziyo.

Turarkan to qismat nur sohib,  
Mendan ziyo tila, sevgilim.  
Tugilgan musht – kaftingni ochib,  
Peshonamni sila, sevgilim...

#### 4

Men bunaqa dunyoning  
Ishlariga besh ketdim.  
Bozor-bozor der ekan,  
Ma’nosiga kech yetdim.

Ajab-ajab! Bozorda  
Yo‘q narsaning o‘zi yo‘q.  
Hatto bunda gap-so‘z ham  
Sotiladi, tuzi yo‘q.

Kimdir vijdonin sotib  
Sira ko‘ngli to‘lmaydi.  
Ammo sotib olganlar  
Vijdonli bo‘p qolmaydi.

Juda qiziq bo‘larkan –  
O, bu damlar, bu damlar.

O'z-o'zini pullasa,  
Arzon-qimmat odamlar.

Sotilmasman, shukur, men,  
Bunga lol-u hayronman.  
Bilmasman kimligimni,  
Yo sutman, yo ayronman.

Gunohim ko'p, gunohing  
Ko'p deb hech kim aytmaydi.  
O'zim sotgan bozorda  
Meni hech kim sotmaydi...

## 5

Bu g'arib dunyoga ne qilib berdim,  
To'ldirib bo'larmi uning kam-ko'stin.  
Bu to'rtta ustunli dunyoga o'zim  
Bo'la olmasman-ku beshinchi ustun.

She'r yozib, qilibman sizni bezovta,  
Afsuski, she'r yozib qilibman huzur.  
Quruq qaytgandayman oxir bu ovdan,  
Quruq she'rlar uchun endi xo'p uzr.

Uzr so'ragim bor hatto falakning  
Quyoshi, yulduzi, hiloligacha.  
Zora, o'z aybimni bo'ynimga olsam,  
Dunyo qolarmikan dunyoligicha?!

## HOL

Vo ajab, ko‘nglimdan ohlar o‘tgaydir,  
Shu ohlar meniki zorlari bilan.

Yana gunoh qilsam, xudo, kechirgin,  
Shu jazo meniki dorlari bilan.

Tog‘lar qizg‘anmaydi mendan o‘zini,  
Shu tog‘lar meniki qorlari bilan.

Men ham turibman-ku qatoringizda,  
Shu qator meniki norlari bilan.

O‘zi eslatgaydir insonligimni,  
Shu g‘urur meniki orlari bilan.

## ONA

Bir qo‘lda beshikni, bir qo‘lda esa  
Dunyoni tebratar ona degan zot.  
Qaysidir bir ayol befarzand bo‘lsa,  
Befarzand deb uni atamang, hayhot!

Garchi u ayolning ko‘zlarida nam,  
Tebratmoq ishi-la banddir bu qo‘llar.  
Axir u ham ona, u ham bunday dam  
Dunyoni tebratib aytmoqda alla...

\* \* \*

Kechir,  
Daryoginam,  
Tinchingni buzdim  
Qalbingga cho'kibdi men otgan toshlar.  
Tilak bajo aylab bag'ringda suzgan  
Tillo oy to'kibdi achchiq ko'zyoshlar.

Xayr,  
Daryoginam,  
Tong otdi, boray...  
O'chmassan, o'chmassan endi yodimdan.  
O'zimdandan-o'zim men qasd olay, mayli,  
Faqat yulduzlarni otma ortimdan!

\* \* \*

Kelarsan – poyingda ko'klamning rangi,  
Kelarman – yo'limda xazonlar jangi.  
Mening har qadamim gunohdir balki,  
Sening har qadaming menga savobmi?

Ko'rmasam, kunlarim zavolga o'xshar,  
Sevmasam, sevgisi uvolga o'xshar.  
Mening har qadamim savolga o'xshar,  
Sening har qadaming menga javobmi?  
Sening har qadaming menga javobmi?

## TALABALIKDA

*(Xonadoshlarga)*

Bizlar shunday xayolparastmiz,  
Qoniqmaymiz kimdan, nimadan.  
Jonimiz bir, ketib boryapmiz  
Hayot otli ulkan kemada.

Bu ketishda biz hali-veri  
Dardimizga topmasmiz malham.  
Ohimizni eshitaverib,  
Bezib ketdi to‘rtta devor ham.

Xudbinmasmiz, chinakam do‘stmiz,  
Uchta yurak bir-birin sevar.  
Shu to‘rt devor xudbindir asli,  
Faqat bizni o‘ylar to‘rt devor.

Vahimaga tushmaymiz qarab  
Kemamizning yoriqlariga.  
Bir kun ishqning nahrida, yorab,  
Yem bo‘lamiz baliqlariga.

Boshga tushgan nechuk savdo bul,  
Peshonada bordir ayriliq.  
Qolsa faqat xotira qolar  
Va to‘rt devor bizdan ayrilib...

## NAY

Shuncha ezurmisan suyaklarimni,  
Shuncha xayollarga boshlarmisan, nay.  
Sezgandek dilimda demaklarimni,  
Shuncha ko'zlarimni yoshlarmisan, nay.

Jismingki, jajjidir sen bir tayoqcha,  
Yillarki o'zingni qilursan ado.  
O, bag'rim o'yiqliq deb yig'laysan muncha,  
Senmisan dunyoda bir baxtiqaro.

Uzoq asrlarning tekkan o'qlari  
Bag'ringni o'yig'-u teshik aylagan.  
Balki seni yirtqich jonzot singari  
Olis taqdirlarning o'zi talagan.

Hali yashamoqda umrlar osha,  
Sendayin taqdiri bisyor quyuqlar.  
Agar sening bag'ring o'yiqliq bo'lmasa,  
Tinglasharmi seni bag'ri o'yiqlar.

Sening faryodlaring balki qaydadir,  
Unut xotiraning ko'ksin yorgaydir.  
Balki bu dunyoning kemtik joyiga  
Sening nolalaring yetib borgaydir.

Sen yig'lab kuylasang har dam shu odat,  
Seni tinglash uchun ko'k ham tutinar.  
O, dahshat, bu ro'yi zaminda faqat  
Seni tinglashmaydi bag'ri butunlar.



\* \* \*

Ko‘nglingizni ovlasin netib,  
Nima qilsin endi bu dunyo?  
Qo‘lingizga xo‘rozqand tutib,  
Boshingizni silasinmi yo?

Nolisangiz gar muhabbatdan,  
Sevsangiz-u sevmasa u yor,  
Nima qilsin, uyam har bitta  
Ohingizga tursinmi tayyor?

Nima qilsin yop-yorug‘ tonglar,  
Qichqirmasdan tursinmi xo‘roz.  
Hatto vaqt ham dardingiz anglar,  
Sizni kutib tursinmi biroz.

Ishlaringiz o‘ngidan kelmoq –  
Uchun yana nimalar kerak.  
Chap tomondan o‘ng ko‘ksingizga  
O‘tvolsinmi endi bu yurak?!

## TOHIRNING SO'ZI

Men endi Zuhroning guli uchun ham  
Dunyoni yondirib ketsam arziydi.  
Men uni har nedan ustun qo'ymog'im  
Muhabbat oldida buyuk qarziydi.

Menga endi hech ne kerakmas, mayli,  
Dunyoning ko'klarga sovrilsin kuli.  
So'ng qabrim ustida meni mensimay,  
Mayli, unib chiqsin Zuhromning guli.

## KO'NGIL

Seni yomon ko'raman –  
Tilingning uchida turadi bu so'z.  
Shashtingdan qaytasan negadir.

Seni yaxshi ko'raman –  
Tilingning uchida turadi bu so'z.  
Ahdingdan qaytasan negadir..

\* \* \*

Atirgul emishsiz, gulshoxingizdan  
Yiqildim, og‘rinib ismingiz aytdim.  
Siz daryo emishsiz, qirg‘og‘ingizdan  
Madorsiz qaytdim.

Endi bu ko‘nglimga turfa o‘y kelmish,  
Olisdan sog‘inib ismingiz aytdim.  
To‘rtta tomoningiz to‘rt fasl emish,  
Bahorsiz qaytdim...

\* \* \*

So‘z dema. Sukunat sharobin ichib,  
Biroz jim turaylik kelmasa malol.  
So‘z dema. Boshimda osmonni quchib,  
Axir, uchmoqdadir erk degan xayol.

So‘z dema. Tomosha aylayin ko‘kdan  
O‘zimning yaratgan orollarimni.  
Toki aytilgan so‘z – aytilgan o‘qdan  
Yarador qilmagin xayollarimni.

\* \* \*

Yomonlarim – sizensiz, do'stlarim,  
Dushmanlarim – yaxshilarimensiz.  
Bir manzilga eltar yo'llarim,  
Hamrohimsiz bunda baringiz.

O'zimni ayblayman, o'zimni,  
Men yomonman, sizlar-chi, yaxshi.  
Men qadam bosyapman siz bilan birga,  
Men qadam bosyapman o'zinga qarshi...

\* \* \*

O'ylanib-o'ylanib chiqar-u quyosh,  
O'ylanib-o'ylanib botar ufqqa.  
So'zlarim botdimi, ko'zingizda yosh,  
Nechun chidamaysiz bunday og'riqqa.

Ko'nglingiz yorishsin har so'zimdand, yor,  
Ko'nglingizga og'ir botsa gar, netay.  
Netayin, SEVAMAN! Yurakdan bu so'z  
Chiqib kelayotir mangu quyoshday!

## MAKTUB

Aylangani yaxshi o‘z o‘qida yer,  
Qo‘ngani yaxshidir bulbulning gulga.  
Yuzingizdan bir bor bo‘sa olay deb,  
Yomonmi lablarim aylansa kulga.

Dunyoda har nening jufti bor ekan,  
Ko‘zingning ko‘zimga bog‘liqligi bor.  
Nega men har tunda sizni o‘ylasam,  
O‘zganimas, meni tush ko‘rasiz, yor.

Oq-qora yonma-yon bo‘lmog‘i kerak,  
Shodlikka yelkadosh erur bu g‘ussa.  
Sizga ko‘z qisgandim...  
Endi tushungum,  
Akaningizning o‘g‘li menga ko‘z qissa...

Ma‘noga egadir har bir harakat,  
Lekin emasdirman bir ichiqora.  
Qalamim bekorga tumshug‘in tirab,  
Oq qog‘oz yuzini etmas hech qora.

Tug‘ma bo‘lsa kerak shoirligim ham,  
Sizni deb nimadir yozganim-yozgan.  
Shundanmi xokisor yuragingizdan  
O‘zimga-o‘zim choh qazganim-qazgan.

Daryoday shovullab oqayin sizda,  
Menda kechmoq bo'lsa,  
Mayli, kechsinlar.  
Qadah keltiraymi...  
Qaynoq qalbimni  
Kimga ichirasiz,  
Mayli, ichsinlar.

O'yim tugamaydi:  
Shodi kim o'zi,  
Nega she'r aytishga qo'yibdi ko'ngil.  
Qo'shiq kuylay desam ovozim dag'al,  
Sayrab yuborgali emasman bulbul.

Siz ham gul emassiz,  
O'qimsiz, gulim,  
O'z o'qi girdida aylangan yerman.  
"Sevaman" so'zi bu –  
Quyoshim erur,  
Har tongda men sizni sevaman derman.  
Har tongda men sizga derman:  
"Sevaman!"

## ZAROFAT

Shig‘alab yog‘ayotgan yomg‘irni  
Shig‘alab yog‘moqda demasman, gulim,  
Shivirlab yog‘ar u sening tilingda.

Yana sening tilingda  
Do‘mpayib turgan qabrlarni  
Mung‘ayib turibdi desa ham bo‘lar.

Shunchalar zarifki,  
Shunchalar shirin –  
Bu dunyoning shevasiga  
Tushmaydi tiling...

“Sevaman” degan so‘z, ayt, gulim,  
Qanday,  
Qanday aytiladi sening tilingda?  
Yana qanday ko‘milsam bo‘lar  
Men uchun qazilgan qabr – qalbingga?!

\* \* \*

Sen gapirganda yonimda turib,  
Olis-olislarga ketar xayolim.  
Olis-olislardan kelayotganday  
Bo‘laverar sening ovozing.  
Sen gapirganda...

## SENGA

Taroziga qo'ysa har bir so'zimni,  
Bitta pallasini bosib ketadi  
Ismingning o'rnini bosguvchi so'zlar.

Taroziga qo'ysa bul yuragimni,  
Tarozining o'sha bir pallasiga  
Quyosh kirib olgan deya o'ylaysan.

Taroziga qo'ysa har bir lahzamni,  
Pallada lahzalar o'ynab, o'ynoqlab,  
Qimmatbaho toshdek jaranglab ketar...

## SMS

Kuylashim shart emas. Sen yonimdasan,  
Hijron haqidadir kuylaganlarim.  
O'ylashim shart emas. Sen yonimdasan,  
Albatta, hijrondir o'ylaganlarim.

So'ylashim shart emas. Sen yonimdasan,  
So'ylaganlarim ham hijron va darddir.  
Bunda faqat sening borliging uchun  
Shukrona aytmog'im shartdir va shartdir.



## QAYTISH

Qaytayapman ona qishloqqa,  
Qaytayapman bola shahardan.  
“Yo‘l oldingmi? – deya, – uzoqqa”,  
Kuzatmadi hech kim sahardan.

Uxlab yotar qizlar ham hali,  
Yostig‘iga qo‘yibgina bosh.  
Faqat biroz xijolat bo‘lib,  
Xayrlashdi ortimdan quyosh.

Meva berdi yolg‘izlik oxir,  
Yo‘ldadirman, dilimda farah.  
Axir, meni kutmoqda yolg‘iz,  
Ismim o‘yib yozilgan daraxt.

Kechga yetib bordim qishloqqa,  
Hamma xursand, chiqdi oldimdan.  
Lek...Quyoshning bosh qo‘yib ufqqa,  
Kutvolganin sezmay qolibman.

## SEVGI

Bug'doyzordek shovullading,  
Somoning bo'ldim, sevgi.  
Sen beg'ubor bolasan,  
Tovoning bo'ldim, sevgi.

Sen baribir yaxshisan,  
Yomonning bo'ldim, sevgi.  
Sen ma'lumsan. Noma'lum  
Tomoning bo'ldim, sevgi!

\* \* \*

Sen mening sevgilimsan,  
O'pgim kelsa, gulimsan.  
O'lgim kelsa, jallodim...

Aytgil, gulim, labim bosay  
Tikangami, g'unchanggami?  
Ayt, jallodim, boshim qo'yay,  
Ko'ksinggami, kundanggami?

## TUG'ILISH

Hali yo'llarimiz yiroqdan-yiroq,  
Qalbinga quloq sol, to'xta, ey sarbon.  
Sening qo'llaringda singan qo'ng'iroq  
Mening yuragimda urayotir bong.

Yulduzlar uchmoqda. Men kutayotgan  
Tong tunning kulguga tashna labidir.  
Oyning yorug'ida yastanib yotgan  
Xayolim Sahroi kabir kabidir.

Nechun bul arosat, nechun bul jimlik,  
Muhabbat osmoni to'ldimi qonga.  
Nechun zulmat aro ko'ngli siniq oy  
Yulduzlarni boshlab ketyapti tongga?

Hali yo'llarimiz yiroqdan-qiroq,  
Hali qismatlar bor shirin va taxir.  
O'zim ham ulkan bir karvonman biroq,  
Meni qay manzilga boshlar bu taqdir?

Nechun ko'zlarimga cho'kmoqda zulmat,  
Koinot ko'ksida otayotir tong.  
Oyning qo'llarida singan muhabbat  
Mening yuragimda urayotir bong...

## KUZ

Kuz keldi, yodimga kelgan ash'orday,  
Kuz keldi so'roqlab xotiralarni.  
Bag'rim butun edi – chalinmasdi nay,  
Bugun tushunaman notalarini.

Kuz kirdi, ul nayning teshiklaridan,  
Kuz kirdi, so'roqlab "Cho'li iroq"ni.  
Kecha qizg'onardim bahorni juda,  
Mehmon qilolaman bugun firoqni.

Kuz tushdi vaqtning zinalaridan,  
Kuz tushdi o'ynatib sariq tillarin.  
Eshitilar "chiq-chiq" – qadam tovushi,  
Kuzning oyog'idir soat millari.

## GUL

Tayyoragoh bo'lsa yuragim agar,  
Muhabbatim sening toza va zarif –  
Yuragingga uchayotgan tayyora, gulim.

Ko'zlaring gar jallod bo'lsa shu qadar,  
Sening kipriklaring bu tayyorani  
Otishga shay turgan o'qlardir, gulim.

## ARMON

G'amga botdi quyoshim, netay,  
Qonga botdi quyoshim, netay.  
Uxlab yotgan yigirma yoshim  
O'tib ketdi qonli bir tushday.

Suyanayin endi men kimga,  
Suyanchig'im – gul shoxi sindi.  
Ishongandim dunyoi dunga,  
Kulbasidan quvmoqchi endi.

Sevgilim, sen sevgidan nafas  
Olayotgan gul eding tonggi.  
Azal ishqing menga tush emas,  
Ertakmidi sen bilgan sevgi.

Endi ko'nglim hayron-u vayron,  
Visolingdan benasibman, gul.  
Sevging berdi chiroyli hijron,  
Hijroningga munosibman, gul.

Sevoldimu seni ko'ngildan,  
Bo'lolmadim yo'ldosh ishqingga.  
Ketib sening osmonlaringdan  
Botsam kerak endi ufqingga...

## HAYOTDAN ERTA KO'Z YUMGAN QIZGA

O'n sakkizga kirgan edi,  
Go'rga kirdi qizgina.  
Chimildiqqa kirish baxtin  
Bilmas endi qizgina.

Kelin bo'lib yig'lamoqdan  
O, u qoldi benasib.  
O, o'zgalar yig'layotir,  
Teskarimi dunyosi?!

Baxtli bo'lish orzu edi,  
O'lim orzu edimi?  
Kiyilajak oppoq libos  
Oppoq kafan bo'ldimi?

Ey, odamlar, mayli, uni  
Tuproq olsin bag'riga.  
So'nggi marta yor-yor aytib,  
Kuzatinglar qabriga...

## FARISHTA

O‘zimga bog‘lanib qolgan zanjirman,  
Temirman-u jonim – eng nozik rishta.  
Men sening sevgingga qandoq arzirman,  
Kuydirma, jim qarab turgan farishta.

Ketaman demagil ko‘ngilni o‘rtab,  
Shirin bo‘lsa hamki ishq o‘yinlari.  
Sening yoding bilan uyg‘onib har tong,  
Unutib boryapman ishq xoinlarin.

Yig‘lab-yig‘l olmagan bir ko‘zman, gulim,  
“Ketma” dan iborat so‘zman bag‘ritosh.  
Bog‘da kapalakdek uchib yuribsan,  
Nahot bu yurakmas – endi sariq tosh...

## TUSHKUN ODAM

Sevgi yo‘q dunyoda. Gul va bulbul bor,  
Gulki o‘ptirguchi turfa bulbulga.  
Vafo yo‘q. Ularga faqat suhbat yor.  
Bulbul bor – qo‘nguvchi gullardan-gulga.

O‘lim bor, demakki, o‘lmoqlik kerak,  
Sevmoqlik kerakdir, ammo sevgi yo‘q.  
Uni yo‘q qilguvchi quroldir yurak,  
“Sevmayman” so‘zi bu – eng oxirgi o‘q!..

## ESKI KUNDALIK

Bu eski kundalik – qadrdon daftar,  
Betida quyosh-u, oy bor ortida.  
Varaqlar – qanotin yozgan kabutar,  
Yillarning izi bor har bir qatida.

Bu eski kundalik – esdalik uchun  
Chizilgan g‘unchada xushbo‘y atirlar.  
Hukmim bajarishga yetmaydi kuchi,  
Qinidan chiqmagan qilich satrlar.

Bu eski kundalik – hali to‘lmagan,  
Olovga tashlagim keladi, lekin...  
Oppoq sahifalar hali to‘lmagan  
Oyga qarab meni yetaklar sekin.

\* \* \*

Men yolg‘on yashadim, yolg‘on yozmasman,  
Men yolg‘on yashadim, o‘lmasman yolg‘on.  
Axir yolg‘on o‘lib bo‘lmagan kabi  
Yolg‘on yozib bo‘lmas, bo‘lmas hech qachon.

Sevmoq bu – yashamoq, demak, bu – gunoh,  
Men-chi, yasholmadim yolg‘onlardan yot.  
Ko‘ngil-chi mast bo‘ldi gulgun maylardan,  
Menga bag‘ishlangan she‘r bo‘ldi hayot!



## TO‘RTLILAR

\* \* \*

Ming afsus, hammamiz suhbatning quli,  
G‘iybatdir, albatta, suhbatning guli.  
Bu gulning bog‘boni xusumat erur,  
Bizlar-chi, bu gulning sayroq bulbuli.

\* \* \*

Manglayingga o‘zbek deb yozmish,  
Uchma xorij koshonasiga.  
O‘z tilingda yozgin-da, do‘stim,  
Do‘koningning peshonasiga.

\* \* \*

Yozolmadim ko‘nglimdagini,  
Yolg‘onga o‘xshaysiz, she‘rlarim.  
Yurak degan bekatdan chiqib,  
Yurakda to‘xtaysiz, she‘rlarim.

## DON VA NON

Aziz tuproq bag‘ri issiq,  
Boshqda don pishgaydir.  
Pishgan tuproq tandir bo‘lar,  
Unda rizq – non pishgaydir.

## GLOBUS

Bul zotning yuzidan o'tib bo'lmaydi,  
Bul zotning yuzidan o'tmoq ne kerak?  
Har bitta ajini –  
Tortilgan chiziq,  
Har bitta ajini –  
Bitta chegara!

## HAZIL

Qoshiq edi, “q” ketib,  
Oshiq bo'ldi bir zumda.  
Kulfat edi, “k” ketib,  
Ulfat bo'ldi bir zumda.  
Tayyor edi, “t” ketib,  
Ayyor bo'ldi bir zumda.

Qornin o'ylab har safar  
Qoshiqqa oshiq bo'ldi.  
Ammo qorni yorilib,  
Kulfatga ulfat bo'ldi.  
Baribir, baribir,  
Tayyorga ayyor bo'ldi.

## VAALAYKUM ASSALOM!

Har kuni yo‘linga ko‘z tikkan qizning  
Duch kelib qolganda biroz hayajon  
Ila pirpiragan ikkala ko‘zin  
Tasvirlab bermoqni eplarman qachon?

Men shoir bo‘lmadim, men bitta nodon,  
Men sevib kulimga ko‘milgan cho‘g‘man.  
Hamon chiqolmadim she‘r xumoridan,  
Hamon unga atab yozishga yo‘qman.

“Assalomu alaykum”, “Bo‘pti, xo‘p, xayr”...  
Tilinga kalima kela qolmaydi.  
Salomga alikni bilmagan shoir,  
Menimcha, yorga deb she‘r yozolmaydi.

\* \* \*

Men sevsam, ishonib sevaman,  
Ishonganim sari muhabbatingga!

Istasam, yonib istayman  
Sening menga ishonishingni.

Yashasam, yashayman senga bag‘ishlab  
Taftini mangulik muhabbatimning.

Yashirsam, kulib yashiraman  
Seni bundan keyingi  
Mensiz dunyolardan qizg‘onganimni.

\* \* \*

Yashayapman endi seningsiz,  
Yuragimga shodlik begona.  
O'ying bilan podshoman tengsiz,  
Hijroningdan qalbim devona.

Quvonaman alamdanda nechun,  
Bol o'rniga icharman og'u.  
Qahring menga huzur baxsh etar,  
Jilmayishing bir olam qayg'u.

Shu ham hijron bo'ldimi deysan,  
Shu vaslimiz senga visolmi?  
Yo'llarimga qo'yarsan to'siq –  
Nurotani yoki Hisorni.

Sog'inmasin barmoqlarimni  
Chumoliga o'xshagan beling.  
Endi bugun yonimda turar  
Uyalgancha o'zga bir kelin.

Boshimda aylangan quyoshni  
Ishqimizga deysan bu ko'zgu.  
Qarolmayman umrim ufqiga,  
Botayotgan quyoshimmi bu...

\* \* \*

Men oshiqman, bu dunyo nadir,  
Ishqparastman, holimdir xarob.  
Sinib qolgan yuragimdadir,  
Ishq atalmish qip-qizil sharob.

Sevsang, sening ishqingman tayin,  
Sevmasang gar, senga atalmaganman.  
Men ojizman, balki guldayin  
Peshonangga bitilmaganman.

Men tanhoman oy-u kun, yillar,  
Balki sen ham mendayin tanho.  
Meni sevar faqat shu yo‘llar,  
Hali mendan to‘ymagan dunyo.

Suydirding-ku bilmasdan turib,  
Sevilmakni, suyib-kuyishni.  
Ketolmassan endi o‘chirib  
Peshonamga yozilgan ishqni.

## ESKI DAFTARDAN

\* \* \*

Dunyo shovqin,  
Dunyosi shovqin,  
U bir chetda kuzatadi jim.  
Men shundayin tovush oldida  
Jimligimni bilmabman, gulim.

Dunyo tordir,  
Dunyosi sozdir,  
Chertaverar mug'anniy ko'nglim.  
Chertaversa ko'nglim mug'anniy,  
Simligimni bilmabman, gulim.

Dunyo shoddir,  
Dunyosi g'amgin,  
Arosatda sochilmish kulim.  
Shu yozilgan she'ring oldida  
Kimligimni bilmabman, gulim.

## NAFRAT

Poytaxtning yerosti yo‘llari ham bor,  
Qimirlab turadi bahaybat ilon.  
Bunga hayron boqar ko‘kdagi quyosh,  
Buni his qiladi ko‘kdagi hilol.

Poytaxtning yerosti yo‘llari ham bor,  
Ular kesishgaydir bitta nuqtada.  
Vishillab yugurgan ilonni, ayting,  
Vijdon bekatida qandoq to‘xtatay?!

Poytaxtning yerosti yo‘llari ham bor,  
Mening yo‘lim boshqa, xayr, xoin do‘st.  
Bu ilon ilonmas agarda, sening  
Qilmishlaring ko‘rib tashlamasa po‘st.

Poytaxtning yerosti yo‘llari ham bor,  
Billur qandillarda yoqilgandir sham.  
Sezmaysan, men shamning ziyosin tilab,  
Har kun yer ostiga tushganim-tushgan...

## MAJNUN DARAXT

O'shal muhabbatim, o'shal gulimni  
Topmayin o'tmasman dorulfanodan.  
Kiprigi maysamish, maysa – ko'nglimni  
Uzib ketolmasman o'shal ra'nodan.

Ko'zlardan tirqirab ketganda suv, voh,  
Behudlik o'zlikdan aylamishmi yot.  
Farahli kunlardan aylab mosuvo,  
Bizga ishq beribdi janobi hayot.

Nima qilmoq kerak? Sevmoqlik mushkul,  
Ul ketsa vatanday bo'p qolar dashtlar.  
Nima qilmoq kerak? G'amlarga butkul  
Menday o'n sakkizni ketmoqda tashlab.

Qirg'oqqa urilib bor vujud bilan,  
O'tmoqda xandalar otib ariqday.  
Tomirim zirqirab, men-chi, ortidan  
Termulib qolyapman Majnun daraxtday.



\* \* \*

Hayot qizib borar tobora,  
Qaynoq suvday qalbim biqirlar.  
Meni ezar g‘amdan iborat  
Bir-biriga o‘xshash taqdirlar.

Ko‘krak kerib yuribman men ham,  
Ammo dilda bir olam qayg‘u.  
Bugun yana yo‘limni to‘sdi  
Dilni dildan ayirgan sevgi.

Bu yerlardan bir kuni ketsam,  
Men qutulsam ozorlaringdan.  
Bahoringa xazonday qaytsam,  
Aldab ketgan bahorlaringdan.

Yuragimni bo‘g‘zimdan to‘ksam,  
Ko‘zimdagi yoshlarim qolib.  
Men jimgina qaytaversam gar  
Osmoningni qafasga solib.

Osmoningni quchoqlab yotsam  
Tunning chuqur zindonlarida.  
Yig‘layversam muhabbatimning  
Sendan qolgan hijronlarida.

Dunyoga-da o‘rganib qoldim,  
Ko‘nikdim-ku odamlariga.

Ko'nikdim-ku, kuyib-o'rtanib  
Muhabbatim sitamlariga.

Qoniqmasman osmonlarimdan,  
O'zimdan-ku hech ko'nglim to'lmas.  
Ketay deyman, azizim, ammo  
Bu joylarni tark etib bo'lmas.

\* \* \*

Tomrimday chalkashdi umrim yo'llari,  
Lolarang kundaga qo'yildi boshim.  
Menga raqib bo'lgan qotil yillarning  
Qo'lida jon berdi yigirma yoshim.

Xazinam ko'klarga ketdi sochilib,  
Ko'zimdan to'kildi yigirma ming dur  
Va sen yuraginga kirding ochilib,  
Qismatim xokiga ekilgan ey gul.

Ko'nglim barbod bo'ldi mening oqibat,  
Ko'ksimdan sug'urib otdim toshimni.  
Boshim aylantirib jallod muhabbat  
Kundaga to'g'irlab ketdi boshimni...

## MANGU QO'SHIQ

Torligicha qolar bu dunyo,  
Dorligicha qolar bu dunyo.  
Mening bitta qo'shig'imsiz ham  
Sozligicha qolar bu dunyo.

Nima kerak, bari behuda,  
Yig'lab boshim urmasman toshga.  
Bu bevafo dunyo aslida,  
Muhabbatning doridan qochgan.

Nima desa desinlar, mayli,  
Mashrabga-da do'st-u habibman.  
Xayyom ichgan sharob-u mayni  
Ko'zlarimda tutib turibman.

Men dunyoga parvo qilmadim,  
Dunyo menga parvolar qilmas.  
Hattoki u bunda o'zining  
Qo'limdagi torligin bilmas.

Balkim endi xudoyim bergan  
Quvonch, ilhom, ko'zda nam bilan.  
Bu dunyoni olganicha qo'lga  
Muhabbatni kuylasam bo'lar...

## MASHRAB

Do'st-u dushmanimmi, ishqilib, barcha  
Yaxshi-yomonimdan ayirdi bu qiz.  
Ming noz-u makriga ergashtirgancha,  
Dinu imonimdan ayirdi bu qiz.

Kulgu kerak emas. Endi kulmasman,  
Bu dunyo g'amlardan bo'ldi iborat.  
Kulgu kerak emas. Endi men mastman  
Alamning mayini ichib tobora.

Endi muhabbatdan kutmasman shafqat,  
Mehrimni bag'ishlab bo'ldim sevgimga.  
Borim ham shu edi. Endi zorman faqat  
O'zim tashlab ketgan o'sha kulgumga.

Taftidan aylandim men bir sahroga,  
Tog'larga aylangan bag'ritoshman, bas.  
Ko'ksimda muallaq osilib qolgan  
Yuragim sirli tosh kabi muqaddas.

Orangizda yurgan mendirman o'sha  
Hamon bu dunyoni ketmagan tashlab –  
Faqat yuragiga, faqat o'ziga,  
O'zining diliga sig'ingan Mashrab.

\* \* \*

Asta qo‘nar kiprigimga qor,  
Qanotlarin yozar ko‘zlarim.  
Qanotiga boylanar-u yosh,  
Aylanadi dilda so‘zlarim.

Bir ilqlik band etar yuzim,  
Bir ilqlik tushar yuzimga.  
Endi aytar hammasin ko‘zim,  
Endi, yorim, qara ko‘zimga.

Nigohlaring eritsin ko‘nglim,  
Nigohingda qovrulib o‘lay.  
Endi, mayli, o‘zimning o‘zim  
Ko‘zim to‘kkan ko‘z yoshi bo‘lay.

Asta qo‘nar kiprigimga qor,  
Aylanadi dilda so‘zlarim:  
“Bilaman-ku seni men, ey yor,  
Qaytmaysan-ku endi, go‘zalim...”

### **SAVOLDAN JAVOBGA**

Kelish-ketish emasdir dunyo,  
Yashamoqlik emasdir malol.  
Bu dunyoda yashab o'tmoqlik –  
Bir lahzalik berilgan savol.

Bu dunyoda qayta va qayta  
Tug'ilmiz devona bo'lib  
Va ketarmiz savollar bilan  
Javoblarga ravona bo'lib.

### **G'AROYIB O'YIN**

Kimlargadir bu hayot ermak,  
Bekinmashoq o'yini emish.  
Pana joyga bekinganlarning  
Bari menga shunaqa demish.

Kattalarning bolalardayin  
Bekinganin ko'rdim men, do'stim.  
Lek ularni topuvchisining  
Yo'qligidan hayratga tushdim...

## YURAK HAQIDA

### 1

Devorda osig‘liq soatga  
Yurakni o‘xshatib bo‘lmas, alhazar.  
Yurgizib bo‘lurmi burab qaytadan  
Yuraging soatday to‘xtab qolsa gar...

### 2

Seni orzu etgan paytda yuragim,  
Ishqqa bandiligini aytdi yuragim.  
Sening yuragingning ostonasidan,  
Ming bora bosh urib qaytdi yuragim.

\* \* \*

Mening ko‘nglim – mening ko‘chamdir,  
Kunlar kabi o‘tmoqdasan sen.  
Gullar kabi mening ko‘chamni  
Atirlarga tutmoqdasan sen.

Taskin bo‘lar menga afsona  
Ishqing bilan telba etishing  
Va qalbimni yoqar bezovta  
Kunlar kabi o‘tib ketishing.

Balki endi buyog‘i aniq,  
Balki aniq aytmasligingdan.  
Rohatlanib yashayapman men  
Kunlar kabi qaytmasligingdan.

## DEVONANING SO‘ZLARI

### 1

Hayotim oldida aybdorman,  
Endi  
Hayotimga qaray qaysi ko‘z bilan?

Qog‘oz oldidagi gunohlarimni,  
Gulim,  
Yuvib tashlay qaysi so‘z bilan?

O‘zimdanda olislab ketibman,  
Afsus,  
O‘zinga boray men qaysi yuz bilan.

Ketishga tayyorman. Xayrlashay, ayt,  
Qaysi bahor bilan,  
Qaysi kuz bilan?

O, endi aybimni o‘rab yotayin,  
Qaysi kafan bilan,  
Qaysi bo‘z bilan?..

### 2

Qoshingdan qor yog‘ar demam,  
Qoringda ne ayb?  
Kipriklaring dor demasman,  
Doringda ne ayb?



Qorlar yog‘ib,  
Dorlaringda osilib o‘ldim,  
Sen borsan – men borman demam,  
Boringda ne ayb?

Senga-ku zor emasdim men,  
Zorimda ne ayb?  
Xor bo‘lasiz hali dema,  
Xorimda ne ayb?  
Axir bu ishq shaytoniymas,  
Farishtalikdir,  
Bu ishqdan or qiling dema,  
Orimda ne ayb?

### 3

Mayli, mendan kechsin  
Qaro qoshligim,  
Itday ergashmasman uning ortidan.  
Axir, oyoqlarim to‘rtta emas-ku,  
Meni afzal biling boyning itidan.

Mayli, mendan kechsin  
Qaro qoshligim,  
Ko‘zlarim to‘rt bo‘lib kutmam intizor.  
Tushuning!  
To‘rtta ko‘z menda ne qilsin,  
G‘aribman!  
Bor-yo‘g‘i to‘rtta qiblam bor...

## BO'YDOQ

*(Hazil)*

Shunday o'tar bu kunlar,  
Shunday o'tar bu hayot.  
Yuragimni olgan qiz  
Yiroqdadir u nahot?!

Bu ovora ko'ngilga  
Biror chora izlayman.  
Uni o'ylab kechalar,  
Sog'inaman, eslayman.

Ko'zim tushib bir bora,  
Unga ishqim tushgandi.  
Shundan beri ishq degan  
Ishga ishim tushgandi.

O'sha damlar, zo'r damlar,  
U dilga o't solgandi.  
Mening bunday ishqimga,  
Barcha hayron qolgandi.

Nima qilay, do'stlarim,  
U qizga men zormasdim.  
Agar uni sevmasam,  
Ko'chasiga bormasdim.

Toshko‘channing boshiga  
Uning uyi joylangan.  
Egasining qiziga  
Mening ko‘nglim boylangan.

Men uyining yonida  
Yonib-yonib kezaman.  
Alamimdan toshlarni  
Oyoq bilan ezaman.

Bor taftimni oshirib,  
Dukurlaydi yuragim.  
Butun jismim terlaydi,  
Ivib ketar ko‘ylagim.

Uyigamas, u qizning  
Yuragiga kirsaydim.  
Kimni ko‘proq o‘ylashin,  
Sevishini bilsaydim.

Ko‘chasidan qaytsam men,  
Yana yig‘lar yuragim.  
Yana tanam muzlatar  
Ivib ketgan ko‘ylagim.

Mening olov kunlarim  
Ana shunday o‘tardi.  
She‘rlar yozgich qalamning  
Uchi qalbga botardi.

Xat yozdim, xatlaringni  
Kutaman deb u yorga  
Va men shunda jo'nadim  
Olisroq bu diyorga.

Shahardaman endi men,  
Yiroqdaman u yordan.  
Bir bor yurak xatini  
Kutmoqdaman u yordan.

Tunlar uni o'ylasam,  
Yuragimni qiynaydi.  
Sevishimni, sevgilim,  
Biladi yo bilmaydi.

Menga boqib u go'zal  
Kulib turar tushimda.  
Go'yo mening sevgimni  
Bilib turar tushimda.

Ko'kragim keng bo'ldi-yu,  
Ammo dunyo tor bo'ldi.  
Ko'ngil yorning zarracha  
Javobiga zor bo'ldi.

Uning go'zal yuzini  
Sog'inganda yiroqdan.  
Shundan keyin to'xtamay  
She'r yozaman yurakdan.

Olisda ham yuragim  
Yuragiga qadalgay.  
Yozilgan bu she‘rlarning  
Bari unga atalgay.

Toshko‘chaning boshiga  
Uning uyi joylangan.  
Egasining qiziga  
Mening ko‘nglim boylangan.

Ko‘zim tushib bir bora  
Unga ishqim tushgandi.  
Shundan beri ishq degan  
Ishga ishim tushgandi...

\* \* \*

Men uning qalbiga ketdim, ey dunyo,  
Sen meni bag‘ringdan topolmagaysan.  
Gar topib olsang ham mening bul hatto  
Tuzsiz peshonamdan o‘polmagaysan.

Turibsan taqdiri azalga ochdek,  
Qarib ham qolibsan mening yoshimda.  
Dunyo, ko‘p kuyinma, bir tola sochdek  
Uzilib tushmayin sening boshingdan.

## BAXT

*O'zi bilan o'zi ovora  
Baxtiyorlar bermadi javob...*

**Rauf PARFI**

Men topolmay baxtning yo'llarin  
O'tirgandim o'yimdan shodon.  
Ko'rsatdi-yu qo'lda pullarin:  
"Mana, senga baxt", – dedi nodon.

Men topolmay baxtning yo'llarin,  
Kimlardandir tanbehlar oldim.  
Havaslariga to'lib dillarim,  
Baxtlilarga ko'z tikib qoldim.

O'z umridan quvonchga to'lib,  
Baxtiyorlar otganda xandon.  
Baxt neligin bilmoqchi bo'lib,  
Men ulardan so'radim chandon.

Men topolmay baxtning yo'llarin,  
Kunlarimdan qoldim ayrilib.  
Menga cho'zmay mehr qo'llarin,  
Boqmadilar ular qayrilib.

Men topolmay baxtning yo'llarin,  
Yurgan edim ko'zda nam bilan.  
Bilsam, bunda baxtli ekanman  
Totli azob, totli g'am bilan...

## QISHLOQNI SOG‘INGANDA

*(Hazil)*

Almashtirib ketdi kim  
Oltinimni toshlarga.  
Telbalikni u bebosh  
Solib ketdi boshlarga.

Sog‘intirding, ey yurtim,  
O‘zing oltin eding-ku!  
Toshkent degan toshlardan  
O‘zing oldin eding-ku!

Oltinlarin yo‘qotgan  
Men ham telba, jinniman.  
Umr bo‘yi “tosh-tosh-tosh”  
Deb tinmayman endi man...

\* \* \*

Yolg'iz tun. Yolg'izman. Eshit, yolg'izim,  
Bu qaro tunlarning baxti ham qaro.  
Yo'qsa, bo'lmas edi yuragimizning  
Bir cheti butun-u, bir cheti yaro.

Yolg'iz tun. Yolg'izman. Eshit, yolg'izim,  
Bu sokin tunlarning quloqlari kar.  
Biz hech qachon baxtli bo'lolmasmiz, bil,  
Mening so'zlarimni tinglamasang gar.

Yolg'iz tun. Yolg'izman. Eshit, yolg'izim,  
Bir sado kelmoqda kuygan ko'nglimdan.  
Men botib ketganda ufqlarga jim,  
Bag'rida oy quchib yotgan gulimsan.

Yolg'iz tun. Yolg'izman. Eshit, yolg'izim,  
Sira o'tirmasman sendan o'tinib.  
Qara, osmondagi yakka yulduzim,  
O'lchamoqda qalbim haroratini...



## AYRIM TARJIMALARDAN

**Mixail SINELNIKOV,**

*rus shoiri*

\* \* \*

Ayon bo‘lganida menga hijron, dard,  
Bir umr yodimga solmasin debon –  
Eski qissalardan joy olgan surat  
Va barcha xatlarni yoqdim bu zamon.

G‘ujanak holida yonardi uyum,  
Qorayib boradi ayolning yuzi.  
Olov va kuyindi ichra hayotim  
Qayta jonlandi-ku shu‘lada suzib.

Meni alangada yondirar yaproq,  
Ko‘kka o‘rlyotgan achchiq tutunda –  
Sening g‘ussang bilan yashayman uzoq,  
Tabassuming yodda saqlab manguga.

## CHO'L YO'LI

Yo'l, shoshasan buncha jonsarak,  
Bizni boshlab qayga borasan?  
Yo'lni davom ettiray, desak,  
Na cheki bor, na ostonasi.

Hatto poyezd shovqini bunda  
Olislardan uchib o'tadi.  
Borliq birday ko'rinar xuddi  
Cholg'uchining torlari kabi.

Bobolardan qolgan azaliy  
Bulog'i ham oqadi tinmay.  
Goh to'g'ri, goh egri yo'l solib,  
Oqar soyasini qoldirmay.

Suzar burgut o'ng-u so'l ichra,  
Saratonda uchar asrlar.  
Uzoqdagi saksovul uzra  
Qotib turar sassiz abrlar.

Erkin, ozod cho'l qushi sokin –  
Tumanlardan ochib bir darcha,  
Sayr etadi tinim bilmayin  
Qanotida vaqtini tutganча.

\* \* \*

Osmonida yulduzlar cho‘g‘dek,  
Sokinlikka cho‘mgandir bog‘i.  
Xuddi o‘n yil avval bo‘lgandek,  
Birdan cho‘mdi zulmatga og‘ir.

Yoz bag‘rida yongan sitora,  
Oyning oydin kumush nurlari.  
Yonib turib bu boshim uzra  
Aldadimi yana nurlanib.

Qancha kezsang, kengdir bu olam,  
Talpinarmiz ularga shoyon.  
Yarim tunda, kunduzlari ham  
Yulduzlarga boshlaydi xayol.

**Vadim TERYOXIN,**

*rus shoiri*

\* \* \*

Chigirtkalar kuylar tinimsiz,  
Pech ortiga gar quloq solsang.  
Bo'lsa hamki hayot shafqatsiz,  
Umrboqiy erur so'z, ohang.

Cheksiz yo'qlik bag'riga singar,  
Topgan shoning, mansab, xazinang.  
Tug'ilganmiz ketish-chun bunda,  
Umrboqiy erur so'z, ohang.

Qanday yashash kerakdir o'zi,  
Oddiy bo'lsang, sira shoshmasang.  
Hayot ekan toki yovuzlik,  
Umrboqiy erur so'z, ohang.

Ammo shoshqin, hovliqma hayot  
Sig'ar yetti notaga arang.  
Bunda bari o'tkinchi va yot,  
Umrboqiy erur so'z, ohang.

\* \* \*

Borliq nedan qo‘rqadi, hayhot,  
O‘limning qoshida qotadi toshday.  
Bu olamda qolmaydi hech zot  
Dunyoni yaratgan Tangrimdan boshqa.

Vujud aylanadi chang-u g‘uborga,  
Bu olamda mangu saqlab bo‘larmi  
Tangri kalomini turfa zabonda  
Tilga oladigan biror odamni?

Nima berar qalblarga taskin?  
Tangri tuhfasidan bahra olgancha,  
Haqni anglab sokin yashamoq mumkin,  
Rohatga ochilgay mangu bir darcha...

**Yekaterina VOLODINA,**

*rus shoiri*

\* \* \*

Tiniq tong yoyilar  
yoz ayvonida,  
Qiyofasi ko'pdir dunyoning  
Azaldan yaralgan... Nigohda quvonch,  
Ajib ohanglik bor qushlar kuyida  
Va o'ylagim kelmas  
Qachondir ne savdo bo'lishini ham.  
U har on hozir-u nozir  
Qalbinning malhami... va mangu olam.  
Quyoshdan nur olar tobora mahkam.  
Uning tez oqishi –  
Tong shafag'i bilan  
To'lgan umrimizning jo'shqinligidir.  
Do'stim, nurga to'lgan quyosh taftida  
Oltin yozning nurlari bilan  
Olamni chulg'agan yangi kun sari  
O'z ortidan ergashtirib u,  
Olg'a boshlar sen bilan meni.

\* \* \*

Shafaq! Aqlimni lol aylagan shafaq!  
Tushlarimga uyg'un xush xotiralar.  
Yoritgich kahrabo rangiga kirdi  
Va keyinga qoldi qoralamalar.

Haqiqat bo'lolmas xayol va timsol,  
Hayotni his qilib boshlanadi kun.  
Sanchilar ruh-u qalb, qonga nur misol,  
Qaytmas bo'lib kirar tasavvurga u.

Ochiqdir quyoshning boqiy oynasi,  
Vaqt, umr va osmon harakatdadir  
Va jo'shqin sharobi yetilgay jozib,  
Yosh avlod istagi faqat baxtdadir.

Yoshlar sevgi bilan – shubha yo'q bunga,  
Sirlarga ko'milib qoladi tunlar.  
Hayotni sevadi – bir qarang tongga,  
Borlig'ini qamrab oladi nurlar.

\* \* \*

Tong ne'matdir, unga har kun kiraman,  
Xudo ehromiga kirgandek chunon.  
Atrofga nazar sol, shunda bilasan,  
Zulmatni yenggan tong – boqiy begumon.

Darvozungdan xabar olaman har kun,  
Yangi satr bilan she'rlarim yorqin.  
Xudoyimga shukur yozganim uchun,  
Eshitganim uchun qushlar sayrog'in.

**Dmitriy BURAGO,**  
*ukrain shoiri*

\* \* \*

Men – membrana, quloq kabiman,  
Suv tubida mitti chig'anoq.  
Men – ummon qalbining zarbiman,  
Men – tovushlar erkasi tayin,  
Men – saslar yukida qotgan bir mina,  
Men – girdobning sirli og'ziman.

\* \* \*

... Va tuman ortida qoldi u ayol,  
Sayozlikdan uchgan qushlarga boqib...  
Ko'zlari – ikkita oynaga misol,  
Tubidan sizgan yosh – yuzlarda zohir.  
Qahqaha otadi go'yoki o'lim,  
Quvonchdan o'ziga joy topolmas dard,  
Tonggi to'shak sovugan kabi,  
Sirli daryo kabi yuksiz va yengil.  
Tumanlar ortida...  
Sayozlikdan uchgan qushlar...



## MISR

Sen uchun shamol kim?  
Sinayning marjonli qoziq tishlari  
Masjid tasbehlari  
Kaftda aylanarkan,  
Yillarning to‘zonli parvozlarini  
Yodga olganча,  
Yangroq tongda  
Rangin chodirlarni yanchganча.  
Sen uchun shamol kim,  
Yerning o‘jar payimi?

**Leo BUTNARU,**  
*rumin shoiri va yozuvchisi*

### **NAVOIYGA**

Sevgi bunda qayg' u bog' idir,  
O'ldirilgan tovusdir yurak.  
Anglamoq-chun zamon ruhini,  
Ey, Navoiy, siz bizga kerak.  
Sharqona, fusunkor So'zingiz  
Boshlab borar ilohiy dardga.  
Yupanch to'la g'azaldan ishqqa  
Intizorlik tug'ilar qayta.

### **SAMARQAND AKS-SADOSI**

Qaydadir – oralab paxsa devorlar,  
Kamalakdek naqshinkor minorlar aro  
Sayr qilib yurgan  
Va uzoq hayallagan farzandin  
Yo'qotib qo'yguday xavotir bilan  
Uning ismin aytib baland ovozda  
Chaqirmoqni istar,  
Biroq darhol fikridan qaytar –  
Muazzin ovozini bosib ketmasin  
Deya to'xtar ayol ovozi...

## **Isqaq Ulan Nurgeldi o‘g‘li,**

*qozoq shoiri*

### **SO‘NIQLIK**

Qari eman qaltiraydi bog‘da, hayhot,  
Biz turibmiz, ey, qayrag‘och yolg‘iz, bedil,  
Bunda yozgan she‘rlarimning bari hayot,  
Bu yashagan hayotimning bari she‘rdir.

Qayg‘usi bor, quvonchi bor yuragimning  
Yetar-yetmas tovushi bor boqqa, axir.  
Odamlarning barisi ham menga yaqin,  
Odamdagi begonalik menga og‘ir.

Bahor kabi g‘unchalagan varraklarim,  
Qo‘lin silkib oshib ketdi ul qirlardan.  
Mening kutgan oq qanotli tilaklarim  
Kapalakdek uchib ketdi gulzorlardan.

Kun nuridek bu olamni qaratib men,  
Yursam edim yorug‘ligim taratib men.  
Bugun bir ish boshlasammi degan edim,  
Oldim yana barmog‘imni qonatib men.

Allanechuk bo‘ron bo‘ldi qum boylagan,  
Ko‘ngil birdan qulab tushdi yuksaklikdan.  
Ko‘tardim-u arang qo‘ydim o‘z joyiga,  
Ey, hayotim, nechog‘li sen suyuklisan!

## SUVGA BORAMAN...

Uyimizda tugabdi-ku suvimiz,  
Chelak olib, etigimni kiydim tez.  
Shundan yangam hayron bo'lib so'radi:  
"Suv yetarli, ne bahona qildingiz?"

"Yana kerak, kir yuvishga", deb aytdim,  
Har kuni shu – suvga ketgum tush payti.  
Bir to'kaman, bir quyaman bu suvni,  
Bu his-tuyg'u yuragimdan tushmaydi.

Ko'p suvsaydi desa kerak qo'shnilar,  
Kim mendagi sog'inchlarni tushunar?!  
Suvga borsam, goh maktabdan kelarding,  
Meni anglar muhabbatga tashnalar.

Suv boshida yo'lingga ko'z tikibman,  
Keladi deb qalbdan olov yoqibman.  
Seni kutib qancha paqir suvimni  
Qora yerga uvol qilib to'kibman.

Ko'zim qadab uzun yo'lning bo'yiga,  
Sabr-u chidam qorishdi-ku qayg'uga.  
Suvga emas, faqat chanqab yuribman  
Ko'zingdagi suvdek tiniq tuyg'uga.

G'amga botib termulaman ortingdan,  
Menga nasib qilsin deyman baxtingdan.  
Tush payt bo'ldi, paqir bo'shmi, yangajon,  
Suvga boray, qaytarmagin shaxtimdan!..

**Yelena BUEVICH,**

*ukrain shoiri*

**O‘RIK GULI**

**1**

U birinchi, u juda jasur,  
Kun isishin sezadi dildan.  
Uning nafis latofatiga  
Asalari boqadi zimdan.

Kapalak ham asalaridek  
Sezib borliq uyg‘onishini.  
Nur yog‘ilgan o‘rik novdaga  
Lip-lip urar nozik to‘shini.

Maqsadi bir ikkisining ham,  
Sherik bo‘lsam ular koriga –  
Gulbarglarning maftuni bo‘lib  
Men darakchi bo‘lsam bahorga.

2

Keksayganda issiq xush yoqar,  
Oftoblarda toblansam deysan.  
O'rik navda mayin silkinib,  
Chorlaganda oromga shaysan.

O'zib ketdi olma gilosdan,  
Ona yer bag'rida gul ochdi.  
Ilohiy quvonchning bag'riga  
Singmoqchi, quchmoqchi, uchmoqchi.

Jannat eshiklari ochildi shunda,  
Ezgulik uyiga qadam bosdi shaxt.  
Sendek adashganga achingan misol  
Oppoq bo'lib gulladi daraxt.

Qushlarning navosi kimo'zar go'yo,  
Inson qahqahasi go'yoki bazm.  
O'rik gulbarglari shodon uchadi  
Eslatib kimgadir qorning parchasin.

## O‘ZBEKISTON XOTIRALARI

Poyezdning tebranish ohangiga mos  
Uzuq-yuluq tushlar tumani aro  
Yuksakdagi parvozli burgut  
Xayoliy nuqtadek bo‘lib ko‘rinar.

O‘ylayman tong chog‘i, ehtimol,  
Burgut yo‘qdir balki osmonda.  
Ehtimol, tushimga  
Uning hayajonga soluvchi  
Qichqirig‘i kirgandir balki...

Tiyonshondan sal chap tomonda  
Asta botayotgan quyosh o‘xsharkan  
Balandlikda – og‘irkarvon  
horg‘in burgutga.  
Go‘yo u yo‘llaydi ajib xayolga –  
Qirmiz ipakdek bulutga  
Kechki ziyo og‘ushida minib oladi.  
Suzayotgan bulut esa mag‘rur  
u qushni  
Cho‘qqidagi uyasiga olib boradi.

## MUNDARIJA

Inson.....	3
Ko'ngil uyi.....	4
Xalqim.....	5
Bilaman, siz.....	7
Abdulla Orif.....	8
Ona tilimga.....	9
Darvoza.....	10
Onajonim xotirasiga.....	11
Ovozim.....	13
Vatan.....	14
O'zbek bolasi.....	15
“Sochingiz o'rimi...”.....	16
Sog'inch.....	17
“U yaxshi qiz edi...”.....	18
“Tuyg'ular otiga...”.....	19
“Zohirda uchragan alomatlarim...”.....	20
“Olis oqshom...”.....	21
“Shoir bo'lmoq...”.....	22
Xudbinning uzri.....	23
Bu dunyo.....	24
She'riyat.....	25
“Bormoqdaman...”.....	26
Bahorga qasida.....	27
Araz.....	31
“O, ufqimga pichoqlar sanchib...”.....	32
Bolalikka “tuhmat”.....	33



“Sen-u mendek...”	34
Chaqaloqqa	35
Dunyo.....	36
Yo‘l.....	37
Uning.....	38
Ayriliq bog‘i.....	39
Qabul aylang.....	42
Ranglar.....	43
“Suvim, og‘irroq bo‘l...”	44
Qizim Madinaga.....	45
“Shu ekanmi bir kam dunyo...”	46
Malol kelmasin.....	47
Ko‘zing – dengiz.....	48
Ibtido.....	49
Hol.....	53
Ona.....	53
“Kechir...”	54
“Kelarsan...”	54
Talabalikda.....	55
Nay.....	56
“Ko‘nglingizni ovlasin netib...”	57
Tohirning so‘zi.....	58
Ko‘ngil.....	58
“Atirgul emishsiz...”	59
“So‘z dema...”	59
“Yomonlarim – sizsiz, do‘stlarim...”	60
“O‘ylanib-o‘ylanib...”	60
Maktub.....	61

Zarofat.....	63
“Sen gapirganda...”.....	63
Senga.....	64
Sms.....	64
Qaytish.....	65
Sevgi.....	66
“Sen mening sevgilimsan...”.....	66
Tug‘ilish.....	67
Kuz.....	68
Gul.....	68
Armon.....	69
Hayotdan erta ko‘z yumgan qizga.....	70
Farishta.....	71
Tushkun odam.....	71
Eski kundalik.....	72
“Men yolg‘on yashadim...”.....	72
To‘rtliklar.....	73
Don va non.....	73
Globus.....	74
Hazil.....	74
Vaalaykum assalom!.....	75
“Men sevsam...”.....	75
“Yashayapman endi seningsiz...”.....	76
“Men oshiqman, bu dunyo nadir...”.....	77
Eski daftardan.....	78
Nafrat.....	79
Majnun daraxt.....	80
“Hayot qizib borar...”.....	81

“Tomrimday chalkashdi...”	82
Mangu qo‘shiq	83
Mashrab	84
“Asta qo‘nar kiprigimga...”	85
Savoldan javobga	86
G‘aroyib o‘yin	86
Yurak haqida.....	87
Devonaning so‘zlari	88
Bo‘ydoq	90
“Men uning qalbiga...”	93
Baxt	94
Qishloqni sog‘inganda	95
“Yolg‘iz tun...”	96

### **Ayrim tarjimalardan**

Mixail Sinelnikov.....	97
Vadim Teryoxin	100
Yekaterina Volodina	102
Dmitriy Burago	104
Leo Butnaru	106
Isqaq Ulan Nurgeldi o‘g‘li	107
Yelena Buevich	109

**UO'K:** 821.512.133-1(081)

**KBK:** 84 (50')6

**O 86**

**SHODI OTAMUROD**

**O 86 Umr o'tib boradir, gulim...** [matn]. {she'rlar}/  
Shodi OTAMUROD. – T.: «Adabiyot» nashriyoti,  
2021. – 116 b.

*Adabiy-badiiy nashr*

**Shodi OTAMUROD**

UMR O'TIB BORADIR, GULIM...

*She'rlar*

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*

Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*


Musahhah: *Dilfuza Mahmudova*

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

 (+98) 127-30-04.

Bosishga 20.09.2021-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 3.7.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.